



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

# VATANPARVAR

## VATANGA QILGUM QASAMYOD

**ONA:**

O‘g‘lonim! Ishonchim, umidim o‘zing,  
Bugun seni chorlar ulug‘ ostona.  
Ontingga sobit bo‘l, oqlagil so‘zing!  
Vatan tinchligini asra mardona!

**O‘G‘IL:**

Tinchlik, ozodlikni asrab jon qadar,  
Mehr-u sadoqatim aylagum bayot.  
Yigitga baxt erur posbonlik azal,  
Orim, jonim tikib, qilgum Qasamyod!

**ONA:**

Men baxtli onaman, sendek o‘g‘lim bor,  
Jasorat yo‘lida toblansin joning.  
Bosgan izlaringdan aylay iftixor,  
Ontingga aylansin ahd-u paymoning.

**O‘G‘IL:**

Olmos qo‘rg‘on bo‘lgum, yurt sarhadiga,  
Irodam toblaydi ishonch-u sabot.  
Tayyorman, xizmatning cho‘ng zahmatiga,  
Yurt bayrog‘in o‘pib, qilgum Qasamyod!

**ONA:**

Duoyim yo‘lingni aylasin ravon,  
Yovqurlar safida mag‘rur tutgil qad.  
Zahmatlarni yengib, bo‘l, jasur posbon!  
Eling faxr etsin sen ila abad.

**O‘G‘IL:**

Ming bir sinovlarga yetar bardoshim,  
Men shonli yo‘llarda ulg‘aygan avlod.  
Ona! Mehriq sabab tik erur boshim,  
Vatanga tiz cho‘kib, qilgum Qasamyod!

**Zulfiya YUNUSOVA**



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA‘NAVIY-MA‘RIFIY,  
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING  
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN  
[WWW.MV-VATANPARVAR.UZ](http://WWW.MV-VATANPARVAR.UZ)

2026-YIL 1-MAY  
№18 (3184)



9-may – Xotira va qadrlash kuni

# AJDODLAR YODI – MILLAT G'URURI, FAXRIYLAR E'ZOZI – INSONIYLIK BURCHI

Davrlar shiddat bilan kechsa-da, tarix sahifalarida muhrlangan jasorat va matonat namunalari yillar o'tgan sari qadr topsa topadiki, aslo zavol topmaydi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror nafaqat bayram tadbirlarining rejasi, balki inson qadri ulug'lash, tarixiy xotirani tiklash va kelajak avlodga ibrat maktabini qoldirish yo'lidagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi.



Bu yilgi bayram tadbirlari "Burch, jasorat, matonat!" degan yagona va teran shior ostida o'tkazilishi belgilandi. Bu Ikkinchi jahon urushining olovli nuqtalarida fashizmga qarshi mardonavor jang qilgan ota-bobolarimizga, front ortida kunni tunga ulab mehnat qilgan zahmatkash xalqimizga, shuningdek mustaqillik yillarida Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida jonfido etgan o'g'lonlarimizga bo'lgan yuksak ehtirom ifodasidir.

Qarorda belgilanganidek, hech bir faxriy, hech bir fidoyi yurtdoshimiz e'tibordan chetda qolmaydi. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga Prezident nomidan biryo'la to'lanadigan pul mukofotlari tantanali ravishda topshiriladi. Har bir urush faxriysi va frontorti mehnat qilgan faxriy o'z xohishiga ko'ra, respublika sanatoriylariga bir nafar kuzatuvchisi bilan bepul yuboriladi. Yolg'iz va kam ta'minlangan faxriylarning turarjoylarini ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari davlat va homiylar tomonidan to'liq ta'minlanadi. Mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan Vatan fidoyilarining xotirasi ham ulug'lanadi. Ularning oila a'zolariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatiladi. Bu davlatimizning "Inson qadri

uchun" degan bosh tamoyilining hayotiy ifodasidir.

Qarorda yosh avlod tarbiyasiga alohida urg'u berilgan. Mahallalarda tashkil etiladigan "Uch avlod uchrashuvlari", "G'alaba bog'i" va "Shon-sharaf" muzeyiga uyushtiriladigan ekskursiyalar yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishga xizmat qiladi. "Vatan tayanchi" harakati a'zolari va "Jasorat maktabi" o'quvchilarining faxriylar xonadonlariga tashrif buyurishi ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'prikn yanada mustahkamlaydi.

2026-yil 9-may oqshomida, soat 21:00 da poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida bayram mushakbozligi bo'lib o'tadi. Sokin va musaffo osmonimiz uzra porlaydigan mushaklar tinchlikning naqadar aziz ne'mat ekani, xotira esa bizni birlashtiruvchi muqaddas kuch ekanini yana bir bor eslatadi.

## TAHRIRIYAT



# ARMIYANING PO‘LAT USTUNLARI

“ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar bugun o‘zining yangi, transformatsion bosqichiga qadam qo‘ydi. Zero zamonaviy urushlar va xavfsizlik tahdidlari nafaqat qurol-aslaha, balki intellektual salohiyatga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan professional kadrlarni talab etmoqda. Bu jarayonda milliy armiyamizning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan serjantlar korpusini tayyorlash tizimi tubdan yangilandi.

S o‘nggi yillarda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash yo‘lida harbiy ta‘lim muassasalari transformatsiya qilindi. Bu shunchaki nom o‘zgarishi emas, balki ta‘lim mazmuni, metodikasi va texnik ta‘minotining mutlaqo yangi darajaga ko‘tarilishidir. Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tarkibida Serjantlar tayyorlash oliy maktabining tashkil etilishi negizida bitta maqsad yotibdi: **professional serjant – jangovar bo‘linmaning haqiqiy yetakchisi**. Avvallari serjantlar ko‘proq ijrochi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi transformatsiya jarayonida ular kichik komandir, murabbiy va strategik bo‘g‘in sifatida shakllantirilmoqda.

Serjantlar korpusini tayyorlash tizimi transformatsiyasi – harbiy ta‘limni xalqaro standartlarga javob beradigan yangi sifat darajasiga ko‘tarish, zarur mutaxassislarni bosqichma-bosqich va uzluksiz dual ta‘limga o‘tkazish, sifatli o‘qitish, liderlik qobiliyatini shakllantirish hamda zamonaviy bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshiradigan mutlaqo yangi tizimni joriy etish orqali, serjantlar qalbida milliy g‘urur va jangovar ruhni rivojlantirish hisoblanadi.

Qolaversa, ushbu mexanizmning joriy etilishi serjantlarda yuksak harbiy-kasbiy professionalizmni shakllantirib, davlatimizning harbiy xavfsizligi va mudofaasini ta‘minlashga, yurtimiz mustaqilligini ishonchli himoya qilishga xos daxldorlik hissi, jangovar ruh, kasbiy iftixor va harbiy-vatanparvarlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Yangi tizimda serjant faqat buyruq bajaruvchi emas, balki askarlar uchun ma‘naviy rahbar, murabbiy va dala komandiri sifatida gavdalanadi.

**Oliy maktabda joriy etilgan metodika quyidagi uchta ustuvor yo‘nalishga asoslangan:**

**Amaliy yo‘naltirilgan darslar:** nazariy bilimlar bevosita poligonda, jangovar vaziyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sharoitlarda mustahkamlanadi. Har bir kursant “komandir-serjant-asakar” zanjirida har bir rolni bajarib ko‘radi.

**Andragogika va harbiy psixologiya:** serjant – askarning eng yaqin maslahatdoshi. Shu bois o‘quv dasturiga jamoada sog‘lom muhitni yaratish, bo‘ysunuvchilarning ruhiy holatini tushunish va inqirozli vaziyatlarda boshqarish kabi fanlar chuqurlashtirilgan holda kiritildi.

**Vaziyatli o‘yinlar (situational training):** kursantlarga kutilmagan ssenariylar (aloqa uzilishi, shartli

dushman pistirmasi, tibbiy yordam zarurati) beriladi va ulardan soniyalar ichida to‘g‘ri yechim topish talab etiladi.

Yangi o‘quv dasturlari zamon talablaridan kelib chiqib hamda milliy manfaatlarimizni inobatga olgan holda shakllantirildi. Qolaversa, endilikda serjant faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmaydi. U psixologiya, pedagogika, IT texnologiyalar va zamonaviy harbiy strategiya asoslarini mukammal egallaydi.

“**Serjant ofitserning do‘sti**” – bu tamoyil bugungi kunda shunchaki shior emas, balki hayotiy haqiqatga aylandi.

**Serjantlar tayyorlash tizimining yangi bosqichga chiqishi Qurolli Kuchlarimizda quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi:**

**Qaror qabul qilish mustaqilligi:** kichik bo‘linma komandirlari jangovar vaziyatda vaziyatni mustaqil baholash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lmoqda.

**Ma‘naviy-axloqiy muhit:** serjantlar guruhdagi intizom va askarlarning ruhiy holati uchun bevosita mas‘ul bo‘lib, armiyada sog‘lom muhitni ta‘minlamoqda.

**Texnologik savodxonlik:** zamonaviy uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA), raqamli aloqa vositalari va murakkab qurol tizimlarini boshqarish bevosita serjantlar zimmasiga yuklatilmoqda.

Ma‘lumki, harbiy mahorat faqat kitobdan o‘rganilmaydi. **Serjantlar**



tayyorlash oliy maktabida ta‘lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi real metodlardan foydalanilmoqda:

**Modulli o‘qitish tizimi:** har bir serjant o‘z ixtisosligi bo‘yicha (razvedka, aloqa, muhandislik va h.k.) tor doiradagi eng so‘nggi bilimlar bilan birga, umumqo‘shin taktikasini mukammal o‘zlashtirmoqda.

**Instruktorlik mahorati:** serjant – o‘qituvchi demak. Kursantlar dars davomida o‘zlari kichik guruhlariga mashg‘ulot o‘tish metodikasini o‘rganadi. Bu ularning kelajakda qismlarga borib, askarlarga bilim berish samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, jangovar shaylik bevosita serjantlar korpusining sifati bilan bog‘liq. Yangi tizim doirasida tayyorlanayotgan kadrlar ertaga sarhadlarimizda, xavfsizlik va jamoat tartibini saqlashda asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, transformatsiya natijasida tayyorlanayotgan kadrlar intizomni nafaqat buyruq, balki shaxsiy namuna orqali o‘rnatmoqda. **Oliy maktab bitiruvchilari zamonaviy qurol-aslahalarni**

texnik ekspluatatsiya qilish, ulardan samarali foydalanish borasida ofitserlarning eng yaqin yordamchisiga aylangan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti qoshida Serjantlar tayyorlash oliy maktabining faoliyat boshlagani milliy armiyamizning jangovar qudrati va mudofaa salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu maskanda toblanayotgan po‘lat irodali yoshlar mamlakatimiz sarhadlari daxlsizligi va xalqimiz osoyishtaligining mustahkam qalqonidir.

Eng muhimi, **Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tizimidagi transformatsiya – bu kuchli va qudratli O‘zbekistonning kafolati**. Serjantlar tayyorlash oliy maktabi esa ushbu qudratning asosi bo‘lgan professional harbiylarni yetkazib beruvchi haqiqiy mahorat maktabi vazifasini bajarmoqda.

**Polkovnik Jamshid KARIMOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi boshlig‘i**



Do'stlik - 2026

# O'ZBEKISTON VA HINDISTON

Sharqiy harbiy okrug tasarrufidagi "G'urumsaroy" dala-o'quv maydonida O'zbekiston va Hindiston harbiy xizmatchilari ishtirokida "Do'stlik - 2026" qo'shma o'quv mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Mazkur o'quvlar ikki davlat o'rtasidagi harbiy hamkorlikni yanada mustahkamlash, jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish hamda zamonaviy tahdidlarga qarshi birgalikda samarali harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

O'quv mashg'ulotlar dasturiga muvofiq, ishtirokchilar zamonaviy jangovar vaziyatlarga moslashgan holda turli taktik epizodlarni bajaradi. Xususan, shartli dushman guruhlarini aniqlash va yo'q qilish, tog'-cho'l hududlarida maxsus operatsiyalar o'tkazish, kichik bo'linmalar tarkibida tezkor harakatlanish hamda terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha amaliy mashqlar o'tkazildi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar o'rtasida jamoaviylikni mustahkamlash, muvofiqlashtirilgan harakatlarni yo'lga qo'yish va qaror qabul qilish tezkorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida zamonaviy harbiy

texnika va qurollardan foydalanish, aloqa vositalarini samarali qo'llash hamda razvedka faoliyatini tashkil etish bo'yicha ham o'zaro tajriba almashdi. Bu esa har ikki davlat harbiy xizmatchilarining professional salohiyatini oshirish bilan birga, ularning xalqaro miqyosdagi hamkorlikka tayyorligini ham mustahkamladi.



# HARBIY HAMKORLIGI YANGI BOSQICHDA



tashkil etiladigan mashg'ulotlar yangi tajribalar, innovatsion yondashuvlar va samarali uslublar bilan boyitilib, ularning ko'lami tobora kengayib bormoqda.

Bugungi kunda global xavfsizlikka tahdidlar tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda bunday qo'shma mashg'ulotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Zero ular nafaqat harbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi, balki davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytirib, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarning yopilish marosimi ham tantanali va samimiy ruhda o'tdi. Unda Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni hamda Hindiston Respublikasidan tashrif buyurgan harbiy delegatsiya rahbari so'zga chiqib, o'zaro hamkorlik samaralari, o'ttirilgan tajriba va erishilgan natijalarni yuksak baholadi.

Tadbir yakunida esa ikki davlat harbiy xizmatchilari o'rtasida shakllangan do'stlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat muhitini aks ettiruvchi ramziy chiqishlar namoyish etilib, "Do'stlik – 2026" qo'shma o'quv mashg'ulotlari yuksak ruhda yakunlandi.

**Sharqiy harbiy okrug  
matbuot xizmati**

Ta'kidlash kerakki, "Do'stlik" qo'shma o'quv mashg'ulotlari 2019-yildan buyon o'tkazib kelinmoqda. Shu vaqt davomida mazkur loyiha ikki davlat Qurolli Kuchlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning muhim platformasiga aylanib ulgurdi. Har yili

Sadoqat onti



# Mehrning qudrati

**Shanba kuni dugonalar ko'rishdik. Bilasiz, yaqinlar diydorlashganda vaqt qanday o'tganini sezmay qolasiz. Bu safar ham shunday bo'ldi. Hash-pash deguncha kech tushdi. Lekin suhatimiz tugay demasdi. Bir mahal negadir Zulxumor shoshilib o'rnidan turdi. Hayron bo'lib unga qaradik. Hech unday qilmasdi.**

– Mehribonlik uyida tarbiyalangan o'g'lim (!) Aziz ertaga Vatanga qasamyod qabul qiladi. Kecha telefon qildi... yig'lagudek bo'lib. Bormasam, bo'lmaydi. Yaqinlari bo'lmasa, o'ksib qoladi, bola bechora. U xizmatni boshlagan harbiy qism Namanganda. Hozir bir-ikki soat dam olib, kechasi yo'lga chiqamiz. Shamollagandim, hali to'liq tuzalmadim. Shunga dam olib, mashina haydashga kuch to'plab olishim kerak. U meni kutadi...

Vujudimda chumoli o'rmalagandek bo'ldi. Shu onda eshitayotgan so'zlarimda shunchaki mas'uliyatni emas, balki yurakning eng tubidan ko'tarilgan mehrning issiq taftini his qildim.

Ha, aslida mehr – ko'zga ko'rinmaydi, lekin og'ir damlarda suyanch, yolg'izlikda hamroh, umidsizlikda esa yurakka jon baxsh etadigan qudrat. U – so'zsiz tasalli, buyuk qo'llab-quvvatlov, yurakka joylangan ishonch. Aynan shu mehr bolaning qalbida iliqlik uyg'otadi, unga o'zini kerakli, aziz va qadrli ekanini his ettiradi. Va aynan shu his insonni Vatanga bog'laydigan ilk rishtaga aylanadi.

Zulxumor yuzlab, o'g'il-qizlar qalbida mana shu buyuk rishtani mustahkamlab kelayotgan inson. U ko'p yillardan beri bolalar uyida ishlaydi. Bu maskandagi hech bir bola uning uchun "begona" emas. Shuning uchun ularning taqdiriga befarq qarolmaydi. U bolalarga qon-qarindoshlik bilan emas, balki qalb qarindoshligi bilan bog'langan. Balki, shu sababli ham Aziz uchun u shunchaki tarbiyachi emas, balki ona siymosining tirik timsoli. Afsuski, bugun ayrim onalar o'z farzandining tarbiyasiga



vaqt topolmayotgan, uning qalbidagi dardni eshitishga sabri yetmayotgan bir zamonda, Zulxumor kabi ayollarning borligi bu jamiyatda insoniylik va mehr-oqibat hali so'nmaganidan dalolat. Meni yana nima xursand qildi, bilasizmi? Balki aynan shu insoniylik necha-necha bolalarning qalbida Vatan degan muqaddas tuyg'uni uyg'otyapti. Zotan, Vatanni sevish, avvalo, insonni sevishdan, mehrni his qilishdan boshlanadi. Ehtimol, o'sha kuni katta davrada safda turib, Vatanga qasamyod qabul qilgan Azizning ko'z o'ngida bayroq bilan birga aynan shu mehr – uning yonginasida qo'llab turgan Zulxumorning nurli siymosi ham gavdalangan bo'lsa, ajabmas.

Men o'sha voqeadan keyin bir haqiqatni angladim: Vatanga muhabbat katta minbarlarda aytilgan shiorlardan emas, balki mana shunday oddiy, lekin yurakni titratadigan mehrdan boshlanar ekan. Chunki haqiqiy mehr bor joyda sadoqat namoyon bo'ladi. Sadoqat bor joyda esa Vatanga xizmat qilishga tayyor yuraklar yetishib chiqadi.





# VATANGA QASAMYOD - DILDAGI AHD

Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism va muassasalarga muddatli harbiy xizmatga yangi chaqirilgan o'g'lonlar tantanali ravishda Vatanga qasamyod qabul qildi. Ushbu marosim har bir askar hayotida o'ziga xos unutilmas lahzalardan biri bo'ldi. Respublikamizning turli hududlaridan farzandlarini qutlash uchun kelgan ota-onalarning quvonchi esa tarix sahifalariga zarhal harflar bilan muhrlandi.

Xususan, poytaxtimizdagi "Yangi O'zbekiston" bog'ida o'tkazilgan marosimda ham o'g'lonlar buyuk ajdodlarning pok ruhlari oldida, Vatani oldidagi burchni halol bajarishga bel bog'lab, vijdoni, or-nomus va sha'nini o'rta

Quruqlikdagi qo'shinlar institutida o'tkazilgan marosim ham o'zgacha shukuhda tashkil etildi. Tadbirda mudofaa vaziri o'rinbosari polkovnik Zoir Bazarbayev, iste'fodagi general va ofitserlar, nuroniylar hamda muddatli harbiy

Tadbirlar bayramona o'tdi. "Vatanga qasamyod" majmuasida o'tkazilgan marosimda mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari, Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-mayor Zaynobiddin Iminov yig'ilganlar e'tiboriga mudofaa vazirining askarlarga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ota-onalar yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan o'g'lonlarga o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdi.



qo'yib, O'zbekiston Respublikasiga, xalqiga va Prezidentiga bir umr sodiq bo'lishga, har qanday mashaqqatli sinov va qiyinchiliklarda ham el-yurtining yuksak ishonchini oqlashga yaqinlari va keng jamoatchilik guvohligida tantanali ravishda ont ichdi. Tadbirda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, Toshkent harbiy okrugi va Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi, Toshkent harbiy prokuraturasi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar Vatan xizmatiga ahd qilgan azamatlarga o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

xizmatchilarning ota-onalari va yaqinlari ishtirok etdi.

Shuningdek, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi hamda harbiy okruglarda ham askarlarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimi tantanali va yuksak saviyada tashkil etildi. Marosim jarayonida askarlar muqaddas bayroq qarshisida Vatanga sodiq bo'lish, uning tinchligi va daxlsizligini himoya qilish, harbiy burchni sidqidildan ado etishga ont ichdi. Bu lahzalar nafaqat askarlar, balki ularning yaqinlari uchun ham unutilmas voqeaga aylangani bilan ham qimmatlidir.

**Podpolkovnik  
Gulnora HODJAMURATOVA,  
"Vatanparvar"**

Armiya kamolot maktabi

# ILMLI ARMIYA – BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Bugungi globalashuv davrida ilm va ta'limning o'rni yanada ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, tezkor axborot oqimi va raqobat kuchaygan bir paytda bilimli, tafakkuri keng, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash har qachongidan ham muhim vazifaga aylanmoqda. Zero ilmi inson nafaqat o'z hayotini, balki jamiyat kelajagini ham o'zgartirishga hissa qo'shadi.

Ayniqsa, bugungi kunda yoshlar uchun ta'lim olish borasida keng imkoniyatlar eshigi ochilyapti. Davlat siyosati darajasida o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishga aylangan bo'lib, turli



grantlar, stipendiyalar va imtiyozli dasturlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, yigitlik burchini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchilar ham e'tibordan chetda qolgani yo'q. Jumladan, **2026/2027-o'quv yilidan boshlab, muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarga bir qator imtiyoz hamda kafolatlar berilmoqda.**



Bu bo'yicha joriy yilning 6-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Unda islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bugun muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni kasbga o'rgatish va sifatli ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish hamda armiyada kitobxonlikni ommalashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqilib, ularni hayotga tatbiq etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

**Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, buyuk yutuqlar orfida doimo ilmga chanqoqlik, intilish va izlanish ruhi yotganini ko'ramiz. Ilm – bu shunchaki bilimlar yig'indisi emas, balki inson tafakkurini yorituvchi, uni yangilik sari yetaklovchi kuch. Ta'lim esa ana shu bebaho boylikni avlodlardan avlodga uzatadigan, jamiyatning barqaror rivojini ta'minlaydigan muhim vosita.**

**Endilikda muddatli harbiy xizmatchilar uchun xizmatni o'tash jarayonidayoq o'z kelajagini mustahkamlashga qaratilgan keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda.** Xususan, yoshlar harbiy xizmat davomida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, masofaviy ta'lim shaklida tahsil olishlari mumkin. Bu esa yoshlar uchun vaqtdan samarali foydalanish, xizmat bilan ta'limni uyg'unlashtirish va o'z bilim darajasini uzluksiz oshirib borish imkonini yaratadi. Shu maqsadda harbiy qismlarda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda abituriyentlarni tayyorlash kurslari tashkil etilib, oliygohlarga kirish imtihonlariga puxta tayyorgarlik ko'rish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan askarlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga foizsiz imtiyozli kreditlar ajratilishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa moddiy

imkoniyati cheklangan yoshlar uchun ham ta'lim olish eshiklarini keng ochib, ularning orzu va maqsadlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Eng muhim jihatlardan yana biri shundaki, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan askarlar harbiy fakultetlar talabalariga tenglashtirilib, o'qishni muvaffaqiyatli tamomlaganlaridan so'ng zaxiradagi leytenant harbiy unvoniga ega bo'ladi.

**Bu islohotlar yoshlar uchun keng imkoniyatlar manbaidir. Chunki ular bir vaqtning o'zida ham Vatan oldidagi muqaddas burchni ado etadi, ham zamonaviy bilim va kasb egasiga aylanadi.** Bunday imkoniyatlar

yoshlarning kelajakda munosib ish topishi va raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, namunali xizmat o'tagan, respublika va xalqaro sport musobaqalari hamda fan olimpiadalarida birinchi o'rinni egallagan askarlarni test sinovlarisiz oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi belgilanmoqda. Bu kabi imtiyozlar harbiy xizmatchilar orasida intizom, bilim va iqtidorga bo'lgan intilishni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Joriy etilayotgan imtiyozlardan yana biri askarlar uchun harbiy xizmat davomida "Bitta askar bitta kasb" tamoyili asosida 3-6 oyluk o'quv kurslari tashkil etilayotganidir.** Ushbu kurslar orqali yoshlar xizmatni o'tash bilan bir qatorda zamonaviy va talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarini egallash imkoniga ega bo'ladi. Eng muhimi, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan askarlarga davlat namunasidagi maxsus sertifikat taqdim etilib, bu hujjat ularning kelgusida ishga joylashishi va kasbiy faoliyatini boshlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tashabbus askarlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ularni amaliy ko'nikmalar bilan boyitish va xizmatdan keyingi hayotga puxta tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, turli sohalar – texnika, axborot texnologiyalari, qurilish, xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda berilayotgan bilimlar yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.



**Shu bilan birga, "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili yoshlarda mustaqillik, mas'uliyat va o'z kelajagiga ongli yondashuvni shakllantiradi.** Natijada harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlar nafaqat jismonan chiniqqan, balki muayyan kasb egasi sifatida jamiyatga qadam qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, bandlikni ta'minlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur tartib iqtidorli va faol yoshlarni erta aniqlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va munosib



rag'batlantirishning samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali armiya safida xizmat qilayotgan yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti shakllanib, ularning har biri yuqori natijalarga erishishga intiladi.

**Eng muhimi, mazkur islohotlar harbiy xizmatni yoshlar uchun keng imkoniyatlar makoniga aylantirmoqda.**

Endi armiya nafaqat burchni ado etish maydoni, balki bilim olish, kasb-hunar egallash, iqtidorni namoyon etish va muvaffaqiyatli kelajakka mustahkam poydevor qo'yishga xizmat qiluvchi muhim hayotiy bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Bir so'z bilan aytganda, bunday yondashuvlar yoshlarda Vatanga sadoqat, mas'uliyat va fidoyilik tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.**

**Leytenant  
Mansurbek JABBOROV,  
"Vatanparvar"**

Harbiy qism yettiligi

# MUAMMOLARGA YECHIM

Harbiy xizmat bu faqat Vatan himoyasi emas, balki yuksak mas'uliyat, intizom va barqaror ijtimoiy muhitni talab qiladigan sharaffi burchdir. Ana shunday sharoitda harbiy xizmatchilarning kundalik muammolariga o'z vaqtida yechim topish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va ma'naviy ruhiyatini mustahkamlash dolzarb vazifaga aylanadi. Shu maqsadda joriy etilgan "Harbiy qism yettiligi" tizimi qisqa vaqt ichida amaliy natijalar berayotgan samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mudofaa vazirining tegishli ko'rsatmasiga muvofiq, harbiy qismlarda xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, harbiy intizomni mustahkamlash hamda shaxsiy tarkibning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida mazkur tizim yo'lga qo'yildi. Xususan, Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan harbiy qismda "Harbiy qism yettiligi" faoliyati samarali tashkil etilgan bo'lib, u harbiy xizmatchilarning ishonchli tayanchiga aylanmoqda. Bu yerda xizmatni tashkil etishning yangicha yondashuvi joriy qilinib, har bir harbiy xizmatchi bilan yakka tartibda, manzilli ishlar olib borilgandi. Yettilik a'zolari har kuni ustuvor vazifalarni belgilab olish, o'zaro hamkorlikda ishlash algoritmini ishlab chiqish orqali tizimli faoliyat yuritmoqda.

Qisqa vaqt ichida "Harbiy qism yettiligi" tomonidan shaxsiy tarkib bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazilib, so'rovnomalar olindi. Oilaviy sharoitlari atroficha o'rganildi. Shuningdek,



moliyaviy va huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etilib, sog'lom turmush tarzi keng targ'ib qilinmoqda. Bu kabi manzilli ishlar o'z samarasini berib, qator ijobiy natijalarga erishishga zamin yaratdi.

Jumladan, ana shunday tadbirlar davomida III darajali serjant Doniyor Rahimovning turmush o'rtog'i Mahliyo Rahimova tomonidan qilingan murojaat o'rganib chiqildi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda u yashaydigan hududga yaqin bo'lgan umumta'lim maktabiga chet tili o'qituvchisi sifatida ishga joylashtirildi. Shuningdek, ularning 2022-yilda tug'ilgan farzandi maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilindi. Bu esa oilaning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir e'tiborli holat, mayor Olim Pardayevning farzandi Muhammadali baxtsiz hodisa oqibatida og'ir jarohat olib, jarrohlik amaliyotiga muhtoj bo'lib qolgandi. "Harbiy qism yettiligi" tashabbusi bilan qo'mondonlik tomonidan

moddiy yordam ko'rsatilib, zarur mablag'lar ajratildi. Bu esa nafaqat bolaning sog'lig'ini tiklashga, balki harbiy xizmatchining ruhiy qo'llab-quvvatlanishiga ham xizmat qildi.

Shuningdek, "Harbiy qism yettiligi" bir qator davlat idoralari va tashkilotlar bilan birgalikda harbiy xizmatchilar yashaydigan mahalla faollari bilan ham mustahkam hamkorlik o'rnatgan. Bu orqali muammolarni joyida hal etish, manzilli yordam ko'rsatish tizimi yanada samarali yo'lga qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Harbiy qism yettiligi" tizimi bugungi kunda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va yechim topishda harbiy qism qo'mondonligi bilan samarali ko'priikka aylanmoqda. Eng muhimi, bu tizim inson qadrini ulug'lash, harbiy xizmatchi va uning oilasiga amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishda o'zini oqlayotgan hayotiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.



Armiya va yoshlar

## KASB VA TA'LIM UYG'UNLIGI

**Bugungi kunda yoshlarning bilim olishi, kasb egallashi va intellektual salohiyatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarni ham kelajak kasblari va ta'lim yo'nalishlariga yo'naltirish hisoblanadi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlikni oshirish, muddatli harbiy xizmatchilarni kasbga yo'naltirish hamda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tegishli qarori mazkur yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qaror ijrosini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash maqsadida Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi boshqaruv apparatida



videokonferens-aloqa shaklida tadbir tashkil etildi. Unda qo'mondonlik tasarrufidagi harbiy qismlar shaxsiy tarkibi, shuningdek muddatli harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Jarayonda kitobxonlik tanlovlari o'tkazish tartibi, ishtirokchilar tarkibi, bosqichlari va baholash mezonlari yuzasidan batafsil tushuntirishlar olib borildi. Shu bilan birga, muddatli harbiy xizmatchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, hududiy o'rta maxsus ta'lim

muassasalar bilan tuzilgan hamkorlik memorandumlarining ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq uslubiy ko'rsatmalar taqdim etildi.

Tadbirning eng muhim jihatlaridan biri uning ochiq muloqot ruhida o'tganidir. Shu kuni harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqirgan savollariga bevosita va to'liq javob olish imkoniyatiga ega bo'ldi.



9-may – Xotira va qadrlash kuni

## MO'TABAR INSON HUZURIDA



Bular haqida katta avlodning tarix darsliklarida biror so'z uchramaydi. Ammo keyinchalik achchiq haqiqatlar kun yuzini ko'rdi. Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq tarixiy voqealarni qanchalik chuqur o'rganganim sari 9-mayga eng munosib nomni – Xotira va qadrlash kuni – O'zbekiston berganiga amin bo'laman.

Urushda g'oliblar bo'lmaydi! O'tmish kamdan kam holatlarda saboq bo'lar ekan. Agar saboq bo'lganida ellik million (*ba'zi manbalarda oltmish million*) insonning yostig'ini quritgan Ikkinchi jahon urushidan keyin... dunyoning bugungi holini ko'ring.

Ikkinchi jahon urushining tamom bo'lganiga ham 81 yil bo'lyapti. Tarix o'lchamlariga qarasa, unchalik ko'p fursat ham emas. U og'ir kunlarni yashab o'tganlar deyarli qolmadi. Yuz yoshdan oshib ham, o'sha yillar dahshatini o'z ko'zi bilan ko'rganlar, qon kechganlarning uchrashi noyob hodisa. Shundaylardan biri Akmal ota Akramov. U 102 yoshda (!)



9-may – Xotira va qadrlash kuni arafasida otaning ziyoratiga keluvchilar ham ko'paygan. Shunday ziyoratlardan birida "Jadid" gazetasining bosh muharriri, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo otaga bir nechta gazeta va 2024-yil sarhisobi bo'lgan "Tilda, fikrda, ishda birlik" yilnoma kitob tuhfasi qildi.

– Bu kitob boshidagi varaqda Prezidentimizning rasmi bor edi, a? – dedi Akmal ota kitobni qo'liga olib varaqlab. – Ha, ha, shu kitob, yaxshi kitob.

Navbat gazetalarga keldi:

– Farrux-ku (*Farrux Zokirov*)! Davlat mukofoti bilan taqdirlangandi, – shunday deb gazetaga ko'z yugurtira boshladi, ko'zoynaksiz! Hayrat!

Ha, bu holat ziyoratchilarning barchasini hayratga soldi.

Hayratlar bu bilan cheklanib qolgani yo'q. ...1941-yil 21-iyun. Raqs maydonchasida edik. Shanba kuni edi. Urush boshlangani e'lon qilindi. Yosh edik, sho'x-olov edik. O'sha zahoti do'stlarimiz bilan ko'ngilli bo'lib jo'nashga kelishdik.



Sherzod SHARIPOV suratga olgan

**Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan bir narsalar qoralab qo'ygan edim. Bunga ijtimoiy tarmoqlarda kezib yurgan bir rasm turtki bo'ldi. Ko'zlari katta-katta, g'amgin, keksa bo'lmagan, ammo yoshlik kuchi ham sezilmaydigan to'shakdagi erkak. Uning qo'l va oyoqlari yo'q. Bunaqalarni "samovor" deyishgan. Ayrim manbalarda bu mayib-majruh jangchini Sovet Ittifoqi Qahramoni deyishadi. Nima bo'lganida ham u mavjud edi, qon to'kdi, og'ir yaralandi, so'ng... "gullab-yashnayotgan" sovet voqeligida ko'zga qadalgan tikandek ko'rinmasligi uchun o'ziga o'xshagan yuzlab majruhlar qatorida sovuq Valaam oroliga olib borib tashlandi.**

Yoshlik toshqin daryo misoli. Qo'rquv yot. O'n yettiga to'lib-to'lmagan yigitlarda yo'qotish, o'lim qo'rquvining yo'qligini yana qanday izohlash mumkin?

Akmal Akramov Toshkentda tug'ilib o'sgan. Ota-onasining yakka-yu yolg'izi bo'lgan. Otasi 1930-yilda olamdan o'tdi. O'shanda u olti yashar bola edi. Oradan 10 yil o'tib, onasi ham omonatini topshirdi. Buvining qo'lida qoldi. Qizidan keyin buvisi ham ko'pga bormadi. Tog'asi bilan yashay boshladi.

Urush boshlanganida hali o'n yettiga to'lgani yo'q edi. Ammo u to'rt marotaba harbiy komissariatga borib, frontga jo'natishlarini so'radi. Rad etildi. Nihoyat, 1941-yilning dekabr oyida unga chaqiruv qog'ozi keldi. O'n yetti yoshga to'lgandi.

Ikkinchi jahon urushi tarixida hozirgi Voronej, Volgograd, Rostov hududlarida, ya'ni Stalingradda qonli janglar kechgani aytiladi. "Volgograd bir parcha yer yo'qki, inson qoni to'kilmagan..." deb o'qiganmiz.

– Dahshatli janglar bo'ldi. Yo'qotishlar shunchalik ko'pki, baayni ulkan go'shtqiyimalagich ishga tushgandek. Yonginangda gapirib turgan safdoshingning lahzalar ichida halok bo'lishi... Olovli janglarda bir boshqa odamga aylanib qolasan. Qo'rquv unutiladi. Ko'plarga qaytish nasib etmadi.

O'n sakkiz bilan yigirma o'rtasidagi yosh yigitni ana shunday qirg'in ichida tasavvur qila olasizmi?! Sizga ham o'n sakkiz yashar farzandingizdan bolalik tamoman ketmagani seziladimi? Bularni o'ylaganimda bir ota sifatida yuragimda xavotir o'rimalaydi. Ehheyy, urushning tamom bo'lganiga qancha vaqtlar bo'ldi-yu, deb kulishingiz mumkin. Ammo tinchlik bilan urush orasida nihoyatda harir parda turishini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Achinarlisi, hamon bolalar o'lyapti...

**Yana Ikkinchi jahon urushi faxriysi Akmal Akramovdan eshitamiz:**

– Kursk yoyida ham og'ir janglar bo'ldi. Oyog'imdan yaralandim. Bu Trexatka qishlog'ida bo'lgan edi. Sanitar yordamida ortga qaytishimga to'g'ri keldi. Shu payt qayerdandir go'dak yig'isi eshitildi. Sanitarga "qaraylik", desam, avvaliga unamadi, keyin ovoz kelgan tomonga bordik. Yerda bir ayol o'lib yotibdi. Yonida emizikli bolasi... Bolani ishonchli qo'llarga topshirganimizdan keyingina gospitalga yotdim.

Dushmanidan tozalangan hududlarda aholi bizni quvonch ko'zyoshlari bilan kutib olgan. Borini biz, askarlarga ilinar edilar. O'sha qattol davrda ularda nima ham bo'lishi mumkin? Kartoshka! Ba'zan tuxum berishadi. Azbaroyi o'zlarida ortib-oshib yotganidan emas, shu tarzda mehrlarini izhor qiladilar. O'z navbatida, biz ham ularni o'zimizning askariy ulushimizdan baholi qudrat siylaymiz. Yodimda, yaqindagina fashistlar okkupatsiyasidan



ozod qilingan hududda besh-oltita bola qurshovidagi ayolga duch keldim. "Hammasi o'zingnikimi?" deb so'radim. Yo'q. O'ziniki emas ekan, qarovsiz qolgan bolalarni yig'ib olgan ekan. Unga yonimda bor askariy ulushimni berdim. Boshqalar ham shunday qildi. Urush ana shunday shafqatsiz, urush uqubat, u hech kimga shafqat qilmaydi. Kattalar kabi bolalarni ham ayamaydi.

Oyog'im operatsiya qilinganidan keyin jangovar harakatlarga yaroqsiz deb topildim. Harbiy xizmatni Sibirda davom ettirdim. G'alaba xabarini Abakanda (*Sibir janubidagi shahar*) eshitdim. To'g'rirog'i, 27-aprel kuni aloqachilar urushning tamom bo'lgani xabarini yetkazdi. Bu juda quvonchli xabar edi: yig'i-sig'i, shovqin-suron...

Toshkentga 1945-yilning sentabr oyida qaytdim.

Umrim mehnat bilan o'tdi. Turli sohalarida sidqidildan ishladim. Rohatini ham ko'ryapman. Tinchlik – ulug' ne'mat. Ahillikka nima yetsin. Tinchlik bo'lsin, to'qlik bo'lsin, do'stlik bo'lsin! Yurtimizdagi har bir o'zgarishlarni diqqat bilan kuzataman: keng va ravon yo'llar, muhtasham qurilishlar, Sirg'aliga qadar uzaygan metro yo'li, qo'shni davlatlar bilan do'stlik aloqalarining kuchaygani Yangi O'zbekistonning yutug'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifi va qo'llab-quvvatlovi bilan Ikkinchi jahon urushining 15 nafar faxriysi haj ziyoratiga yuborildi. O'n besh faxriyga o'n besh yordamchi qo'shib berildi. Bizning guruhimizni maxsus birlashtirilgan insonlar aeroportdayoq kutib olishdi. Ziyoratimiz juda yaxshi kechdi. Makka shayxi bizga qimmatbaho soatlar tuhfasi qildi. Aslida bu siylov va hurmatlar biz orqali davlatimizga, davlatimiz rahbariga ko'rsatildi!

\*\*\*

Hamma narsa tinchlikka yarashadi. Tabarruk yoshli otaxon Akmal Akramov suhbatidan uning ziyoratchilari mamnun bo'lgani shubhasiz. Eng muhimi, mo'tabar yoshda ham yurtga daxldorlik hissi bilan yashashi, qalbining uyg'oqligi ibratlidir! Bu kabi insonlar – o'zbekning, O'zbekistonning faxri.

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"



Ajdodlar jasorati – yoshlarga ibrat

# QUVALIK QAHRAMONNING xotira daftari



ham qaytarib olishimni aytdim. U paytlar aloqa tarmoqlari u qadar rivojlanmagan, xatlar Amerikaga bir oyda borib, bir oyda qaytardi. Ikki oy deganda undan javob keldi: *“Xatingni o'qidim va shu kuni tushimda dadangni ko'rdim. U ham medalni qaytarishimni istayapti. Men albatta uni qaytaraman. Faqat hozircha qanday qilib yuborishni bilmayman, bir yo'lini topib, senga xabar qilaman”*. Bu orada Genri urush qahramonlariga bag'ishlangan kitobini yozib tugatdi va menga ham bir nusxa berib yubordi.

2004-yili hayotimdagi unutilmas voqea yuz berdi. Meni Toshkentga chaqirtirishdi. Quva mudofaa ishlari bo'limidagi bir ofitser bilan u yerga yetib bordik, Mudofaa vazirligida bo'ldik. Ertasiga bir qator urush qatnashchilari va mehmonlar ishtirokida Amerika generali Piter Peys dadamning urushda ko'rsatgan jasoratlarini haqida gapirib, uning *“Oltin yulduz”* medalini tantanali ravishda menga topshirdi. Beixtiyor ko'zlarimga yosh to'ldi. Amerikalik mehmonlar, barcha jonkuyar insonlar hamda Genri Sakaidaga o'z minnatdorligimni bildirdim. Ma'lum vaqt o'tib, Genrini O'zbekistonga taklif qilib, u bilan ko'rishdim.

*“Sovet Ittifoqi Qahramoni”* Muxitdin Umuridinovning urushdan keyingi hayoti va faoliyati haqida uzoq to'xtalish mumkin. U Quvada katta obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Mas'uliyatli vazifalarda xizmat qilgan. Umr yo'ldoshi Maqsuda opa bilan sakkiz o'g'il-qizni ulg'aytirib, elparvar insonlar safiga qo'shgan. Umrining so'ngiga qadar el orasida bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, 69 yillik umri davomida hayotning zahmatli sinovlariga ko'krak tutib, yurti uchun yonib yashagan. Bunday insonlar xotirasi hamisha uyg'oq, hamisha hurmat va e'zoz ila yodga olinishga loyiqdir.

Zulfiya YUNUSOVA,  
“Vatanparvar”

Qo'limda Sovet Ittifoqi Qahramoni Muxitdin Umuridinovning xotira daftari. Unga ko'z yugurtirar ekanman, beixtiyor shoir va adib G'afur G'ulomning *“Shumbola”* asari va undagi bosh qahramon Qoravoyning o'z o'rnida kulgilli, o'z o'rnida ayanchli sarguzashtlari yodimga tushdi. Darhaqiqat, hayot zanjiri sinovlardan iborat. Bu sinovlar Muxitdin ulg'aygan davr avlodlari uchun bir qadar og'ir kechgan.

Shunday qilib, hayot silsilalarida toblangan Muxitdin yoshi ulg'aygan sari sinovlardan saboq oldi, hayotni teran anglab bordi, bilim olishga intildi, savodli bo'ldi. 1930-yili olti oylik qurilish kursini tamomlab, vodiydagi qurilishlarda ishladi.

Tinib-tinchimas, intiluvchan va g'ayratli qahramonimiz yana o'z oldiga maqsad qo'ydi va erishdi. Ya'ni Toshkentdagi o't o'chiruvchilar bilim yurtida tahsil olib, shu sohada xizmat qila boshladi. 1941-yili uni yo'nalishi bo'yicha Dog'istonga ishga yuborishdi, Derbent shahridagi o't o'chiruvchilar bo'linmasiga komandirlik qildi.

## JANGGOHLARDAGI UNUTILMAS JASORAT

1942-yilning yanvar oyidan esa Muxitdinning Ikkinchi jahon urushi frontidagi qahramonliklari boshlandi. U o'zining xotira daftarida janggohlardagi hayajonli voqealarni quyidagicha ta'riflaydi: *“Bizni 25-polok bilan Uzoq Sharqqa, sovet-yapon chegarasiga olib kelishdi. Men frontda razvedkachi sifatida xizmatni boshladim. 1943-yilning avgustida razvedka guruhiga komandir qilib tayinlashdi va shu kuni razvedkaga chiqib, ikki kilometr chamasi yo'l yuridik va fashistlarga duch keldik. Jang davomida 21 ta fashistni yer tishlatdik. Qo'ljangida besh nafar fashistni o'ldirib, bir askar va komandirni asir oldim. Xizmatlarim uchun ikkinchi darajali *“Ulug' Vatan urushi”* ordeni bilan mukofotlandim.*

Meni Komsomolskaya shahriga komandirlik maktabiga o'qishga yuborishdi. O'qish tugamasdan, Moskva ostonasida bo'layotgan jangga jo'nadik. Bizning 1022-o'qchi polkimiz fashistlarga qarshi qaqshatqich jang olib bordi. Janglar davomida komandir vsvodim va komandir rotam halok bo'lib, yetti kishi qoldik. Komandirlikni o'z zimmamga oldim va safdoshlarimning joniga qasd qilgan, tinmay o't ochayotgan fashist pulemyoti tomon yo'l oldim...”

## O'LIM CHANG SOLOLMAGAN QAHRAMON

Muxitdin ayovsiz janglar davomida Oryol hamda Belarus shahar va qishloqlarini gitlerchilaridan ozod qilishda faol qatnashdi. 1944-yilning yanvaridagi janglardan birida o'n to'rt joyidan yaralanib, behush yiqildi. Unga Gomel shahridagi gospitalda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatildi, qon quyildi. Davolash muolajasi uzoq davom etdi. Biroq ko'p qon yo'qotgan yigit ko'zini ochmadi. Shifokorlar uning hayotga qaytishidan umidini uzdi. Vujudida hayot alomati yo'q jangchi o'likxonaga joylashtirildi. Oradan bir sutka o'tgach, gospital qorovuli o'likxonaga kirib, uning

nafas olayotganini sezib qoldi va shifokorlarga xabar berdi. Qayta-qayta qilingan muolajalar o'z samarasini berdi, yigit hushiga keldi. Gospitalda ikki oy davolangan Muxitdin Tyumen shahri gospitalida yana uch oy muolaja oldi.

Xotira daftaridagi yurakni larzaga soluvchi jang tafsilotlari, qiziqarli va xilma-xil voqealar o'quvchini befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, Muxitdinning nemis tanklarini yo'q qilishdagi jonbozligi g'alabani ta'minlashga katta ulush qo'shganini haqiqiy qahramonga aylantirdi. Katta serjant Muxitdin Umuridinov 1944-yilning iyulida Kremlda Lenin ordeni va *“Sovet Ittifoqi Qahramoni”* unvonini qabul qilib oldi.

## AMERIKADAN MAKTUB

– Dadamning *“Oltin Yulduz”* medali turli sabablarga ko'ra, uch marta yo'qolib, uch marta topilgan, – deydi qahramonning o'g'li Raxmatjon Umuridinov. – Qarangki, katta suv toshqinida qishlog'imizda yo'qolgan medal Amerikadan qaytarildi. Bu voqea qisqacha to'xtaladigan bo'lsam, 2000-yili menga Amerikadan xat keldi. Xat rus tilida bo'lib, quyidagi so'zlar bitilgandi: *“Men amerikalikman, ismim Genri Sakaida. Los-Anjeles yaqinida yashayman. Ikkinchi jahon urushi qahramonlari haqida kitob yozmoqchiman. “Sovet Ittifoqi Qahramoni” Muxitdin Umuridinov to'g'risida ham. Uning urushda ko'rsatgan hamma qahramonliklarini diller yollab, Moskva mudofaa ishlari vazirligidan oldim. Qahramonning urushdan keyingi hayotini menga yozib yuborsangiz”*, debdi. Otamning urushdan keyingi hayoti haqida unga yozib yubordim.

Shu tariqa u bilan tanishib oldim va xat yozishib turdik. Bir gal u yuborgan xatda bir-nechta rasm keldi. Ne ko'z bilan ko'rayki, rasmda dadamning *“Oltin yulduz”* medali guvohnomasi bilan turardi. Hayajonlanib ketdim, medal uning qo'liga qanday yetib borgani bilan qiziqdim, uni qancha narxga bo'lsa

## BOLALIKNING OG'IR KECHMISHI

Maqolamiz qahramoni 1912-yili Farg'ona viloyatining Quva tumaniga qarashli Boyiston qishlog'ida tug'ilgan. Davlat parokanda, xalq qashshoqlikka yuz tutgan, chor Rossiyasi o'z hukmini o'tkaza boshlagan taloto'p davr. Oddiy dehqon bo'lgan oila boshlig'i Umurdin aka hayot bilan erta vidolashdi. Ikki norasidasi bilan beva qolgan Fazilatxon opa ham eridan keyin ko'pga bormadi. Qizi va o'g'lini tashlab ketishga ko'zi qiymagan onaning ko'zlari ochiq ketdi. Bu paytda bolalarning yolg'iz suyanchig'i bo'lgan amakisi davr tazyiqlaridan qochib, Toshkentning Yangiyo'l tumanidagi Qoratepa qishlog'ida istiqomat qilardi. U Muxitdinni o'sha yerga o'zi bilan olib ketdi.



Shunday qilib, amakisi qo'lida qolgan to'qqiz yoshli bolakayning boylar, diniy ulamolar va katta yer egalari qo'lidagi xizmatkorlik – hovli yumushlari, choyxona ishlari, cho'ponlik, dehqonchilik... kabi majburiyati, to'g'rirog'i, turli xonadonlardagi sarguzashti boshlandi. Buning evaziga amakisi ulardan haq olardi. Muxitdinning bolalik sarguzashtlari bilan tanishib, G'afur G'ulom *“Shumbola”*ni qahramon otaxonimiz bilan suhbatlashib yozmaganmikan, degan xayolga ham keldim.



Yoshlar jasorati – yurt iftixori

## XALQARO MUSOBAQADA shijoat sinovi

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan Mudofaa vazirligi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar institutida ilk bor "Vatanparvarlar" xalqaro harbiy sport musobaqasi o'tkazildi. Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Rossiya va Belarus Respublikalaridan tashrif buyurgan jamoalar ishtirok etdi.

Xorijiy mehmonlar yurtimizda yuqori saviyada kutib olindi. Ularning joylashuvi, mashg'ulotlari va dam olishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi. Har bir jamoa o'ziga xos tayyorgarlik bilan kelgani, mashg'ulot maydonlarida o'z ustida jiddiy ishlagani sezilib turardi.

Musobaqaning ochilish marosimi tantanali ruhda o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant Shuxrat Xalmuxamedov so'zga chiqib, ushbu nufuzli musobaqada ishtirok



etayotgan yoshlarni samimiy qutlab, barchaga omad yor bo'lishini tiladi. Mazkur tadbir yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, harbiy sport mahoratini oshirish hamda xalqaro do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, ushbu bahslar bilan bir vaqtda "Turon yo'lbarlari" hamda "Mudofaa vaziri kubogi" uchun o'tkazilayotgan "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqalarining qiziqarli va murosasiz kurashlar ruhida o'tishini, yangi yutuqlar, yorqin taassurotlar va muhim g'alabalarga boy bo'lishini tilab, yoshlarimiz haqiqiy do'stlar orttirishiga ishonch bildirdi.

Marosim davomida turli badiiy chiqishlar namoyish etildi. Sahnalarda harbiy-vatanparvarlik ruhini aks ettiruvchi ko'rgazmali qo'ljangi chiqishlari hamda sahna ko'rinishlari tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Musobaqaning dastlabki kunlarida ishtirokchilar turnikda tortilish, AK-74 avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish, arqon tortish, merganlar bellashuvi, harbiylashtirilgan estafeta, yagona to'siqlar yo'lagi, jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, "Mardlar estafetasi" hamda "Smart sardori" ixtirochilik tanlovi kabi qator shartlar bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazdi. Bahslar davomida ishtirokchilarning jismoniy chidamliligi, tezkor fikrlashi va jamoaviy hamkorligi hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi.

Aytib o'tish lozim, "Vatanparvarlar" xalqaro harbiy sport musobaqasi doirasidagi hal qiluvchi bahslar yuqori ruh va keskin raqobat ostida bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilar o'zlarining nafaqat jismoniy, balki harbiy-amaliy tayyorgarlik darajasini ham sinovdan o'tkazdi. Musobaqaning "Merganlar bahsi"da har bir jamoadan ikki nafardan ishtirokchi TOZ-8 miltig'idan 50 metr masofadagi nishonga qarata 10 tadan o'q uzdi. Belgilangan 8 daqiqa vaqt ichida bajarilgan ushbu shart ishtirokchilardan aniqlik, diqqat va puxta tayyorgarlikni talab etdi.



– Ushbu shart qatnashchilardan nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki kuchli diqqat va ruhiy barqarorlikni ham talab etadi, – deydi O'zbekiston jamoasi a'zosi Hasan Xo'jamurotov. – Jarayonda har bir qatnashchi quroldan o'q uzish mobaynida mas'uliyatni his qilishi muhim, chunki kichik xatolar ham natijaga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu musobaqa men uchun katta tajriba maktabi bo'ldi. Bahslar davomida turli davlatlardan kelgan tengdoshlarim bilan kuch sinashish, ularning tayyorgarlik darajasini ko'rish meni yanada ruhlantirdi.

Shuningdek, musobaqaning harbiylashtirilgan estafeta bahslarida jamoaning 6 nafar a'zosi o'zaro hamjihatlikda harakat qildi. Ishtirokchilar AK-74 avtomatini qismlarga ajratish va qayta yig'ish, gaz niqobini tezkor kiyish, zambilda "bemor"ni olib yugurish hamda pichoq ulotirish kabi murakkab vazifalarni bajardi.

– Mazkur shartda barcha topshiriqlarni qisqa vaqt ichida aniq bajargan jamoa ustunlikka ega bo'ladi, – deydi podpolkovnik Aziz Haydarov. – Albatta, jarayon ishtirokchilardan kompleks tayyorgarlikni talab qiladi. Shartlarni baholash davomida ishtirokchilarning musobaqaga nafaqat jismonan, balki ruhan jiddiy hozirlik ko'rganiga amin bo'ldik. Shuni ham ta'kidlab o'tishim kerak, shiddatli bahs va sinovlar yoshlar o'rtasida vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga, ularning jismonan chiniqlashiga hamda xalqaro do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi tayin.

To'rt nafar ishtirokchi 800 metr masofaga yugurib, pnevmatik miltiqdan nishonga qarata o'q uzadi hamda o'quv granatasini belgilangan nuqtagacha ulotiradi. "Mardlar estafetasi" deb nomlangan mazkur shart davomida ishtirokchilar nafaqat elementlarni tezkorlik bilan bajarishi, balki bahslarni jarima ballarisiz yakunlashi kerak. Nishonga tegmagan har bir o'q ularni finishgacha bo'lgan masofasini uzaytirib boraveradi. Bu esa bahslarga dramatik ruh bag'ishlaydi.

– Uzoq masofaga yugurib kelgandan so'ng darhol pnevmatik miltiqdan nishonni bexato urish juda qiyin, – deydi Qirg'iz Respublikasi jamoasi a'zosi Nurg'ozzi Azimov. – Chunki yurak urishi tezlashgan holatda aniqlikni saqlash oson ish emas. Granata ulotirishda esa kuch bilan birga hisob-kitob ham muhim omillardan. Har bir element o'ziga yarasha murakkab, lekin aynan shu jihat shartning qiziqarli tarzda o'tishini ta'minlaydi. Ilk bor xalqaro musobaqada qatnashishim. O'zbekistonlik tengdoshlarim menda juda yaxshi taassurot qoldirdi. Ular intizomli, jismonan chiniqqan va ochiqko'ngil. Maydondagi raqobatga qaramay, bir-birimizni hurmat qilamiz. Bu musobaqa menga yangi do'stlar orttirish imkoniyatini berdi.

Xalqaro musobaqa bir necha kun davomida yuqori saviyada tashkil etildi. Bahslar yakunida ishtirokchilar o'z mamlakatlari milliy urf-odat va qadriyatlariga oid badiiy chiqishlari bilan musobaqaga do'stona ruh bag'ishladi. Quruqlikdagi qo'shinlar institutida o'tkazilgan musobaqa ham o'z yakuniga yetdi.

Yakunda barcha shartlarda yuqori natijalarni qayd etgan jamoalar e'lon qilindi. Unga ko'ra, "Vatanparvarlar" xalqaro harbiy sport musobaqasida faxrli 3-o'rin Qirg'iz hamda Belarus Respublikalari jamoalariga nasib qildi. Ikkinchi o'rinni Qozog'iston jamoasi egallagan bo'lsa, O'zbekiston jamoasi musobaqaning mutlaq g'olibi deb topildi.

## MURAKKAB SINOVLAR – kuchli xarakterlar

Quruqlikdagi qo'shinlar institutida xalqaro musobaqa bilan bir vaqtning o'zida umumta'lim maktablarining 10-11-sinflarida tahsil olayotgan, "Vatan tayanchi" otryadi a'zosi bo'lgan o'quvchilar o'rtasida "Mudofaa vaziri kubogi" uchun "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqasining yakuniy bosqichi ham o'tkazib borildi.

Jarayonlar o'xshash. Bellashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi, poytaxtimiz va viloyatlardan saralangan 14 ta jamoa dastlab ilk harbiy ko'nikmalarni sinovdan o'tkazadigan – "Harbiylashtirilgan estafeta", tibbiy bilimlarning amaldagi ifodasi bo'lgan – "Jabrlanuvchiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish", sinchkovlikni





talab etuvchi – “Merganlar bahsi” hamda turnikda tortilish (o‘g‘il bolalar uchun), kuragi bilan yotgan holatda tanani ko‘tarish (qizlar uchun) kabi shartlarda bor kuch, bilim va imkoniyatlarini namoyon etib bordi.

Ushbu musobaqa ham boshqa jarayonlar kabi bahslarga boy tarzda o‘tdi. Unda har bir jamoa g‘oliblik uchun astoydil ter to‘kdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, 3-o‘rin Toshkent viloyati “Lochinlar” jamoasiga nasib qildi. Ikkinchi o‘rinni Toshkent shahri “Temurbeklar” jamoasi egalladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Lochin” jamoasi esa musobaqa g‘olibi deb topildi.

Shuningdek, bahslarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan o‘quvchi-yoshlar shartlar g‘olibligidan tashqari qo‘shimcha nominatsiyalar bo‘yicha ham taqdirlandi. Unga ko‘ra, Samarqand viloyati “Bars” jamoasi “Eng yaxshi ixtirochi”, Buxoro viloyati “Jasorat” jamoasi “Eng yaxshi ijrochi”, Qoraqalpog‘iston Respublikasi “Lochin” jamoasi esa “Eng kuchli jamoa” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topildi.

Yakkalik bahslarda yuqori natijalarni ko‘rsatgan sportchilar ham alohida nominatsiyalar bo‘yicha taqdirlandi. Unga ko‘ra, Toshkent shahri “Temurbeklar” jamoasi a‘zosi Mubina Foziljonova “Eng kuchli sportchi”, Qashqadaryo viloyati “Turon arslonlari” jamoasi a‘zosi Elmurod Shomurodov “Eng mohir mergan”, deya e‘tirof etildi.

## “TURON YO‘LBARSLARI”: kuchlilar saralandi



Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident, ijod, sport va ixtisoslashtirilgan maktab hamda maktab-internatlar o‘quvchilari o‘rtasida “Turon yo‘lbarlari” harbiy sport musobaqasi ham yuqori saviyada o‘tkazildi.

Musobaqaning ochilish marosimida so‘zga chiqqan mutasaddilar va mehmonlar barcha jamoalarga omad va zafarlar tiladi. Mazkur bellashuvda yoshlar o‘rtasida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarning harbiy xizmatga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, shuningdek ularni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgani ta‘kidlab o‘tildi. Shu bilan birga, yoshlar ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burchligini chuqur singdirish musobaqaning asosiy maqsadlaridan biri ekani aytib o‘tildi.

Bellashuvning ilk kunidayoq ishtirokchilar o‘z mahoratlarini turli shartlar orqali sinovdan o‘tkazdi. Jumladan, “AK-74 o‘quv qurolini qismlarga ajratish va yig‘ish”, “Mohir mergan”, “Kamondan o‘q otish”, “20 metr masofaga arqon orqali harakatlanish”, “Umumqo‘shin himoya vositalarini belgilangan vaqtda kiyish”, “Turnikda tortilish” hamda “Birinchil tez tibbiy yordam ko‘rsatish” kabi yo‘nalishlarda bahslar olib borildi.

Jarayonda ishtirokchilar nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki harbiy bilim va ko‘nikmalarini, chaqqonligi, matonati hamda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham namoyon etdi. Bellashuvlar keskin va murosasiz ruhda o‘tib, har bir jamoa g‘alaba uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi. Har



bir shart o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, chaqqonligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini birdek sinovdan o‘tkazdi.

“Turon yo‘lbarlari” harbiy sport musobaqasining yakuniy natijalariga ko‘ra, 3-o‘rin Jizzax viloyatidagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi jamoasiga nasib etdi. Ikkinchi o‘rinni Andijon viloyatidagi Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi jamoasi egallagan bo‘lsa, Toshkent viloyatidagi Zangiota tumani ixtisoslashtirilgan maktabi jamoasi yuqori natijalar bilan musobaqaning mutlaq g‘olibi deb topildi.

Shunday qilib, bir necha kun davomida Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti shiddatli bahs-munozaralarga boy bo‘lgan musobaqalarga mezbonlik qildi. Ta‘kidlash darkor, uchala musobaqaning bir maydonda, bir vaqtning o‘zida o‘tkazilgani tadbirlarning nufuzini yanada oshirdi. Keskin kurashlar va yorqin g‘alabalar bilan yodda qolgan ushbu bahslar yoshlar qalbida unutilmas taassurotlar qoldirdi. Eng muhimi, tadbirlar nafaqat yoshlarning jismoniy va ma‘naviy salohiyatini namoyon etdi, balki ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalqaro do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga ham xizmat qildi.

Musobaqalarning yopilish marosimida faxrli o‘rinlarga sazovor bo‘lgan jamoalar hamda nominatsiya g‘oliblariga kubok, diplom, statuetka va esdalik sovg‘alar topshirildi. Qolgan jamoalar ham hamkor tashkilotlarning qimmatbaho sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,  
“Vatanparvar”



Yosh chegarachilar

# KUCH BILIM VA TAFAKKURDA!

Bugun har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallagan tashabbuskor yoshlarimiz jamiyatimizning turli sohalarida o'z iqtidorlarini namoyon etib kelmoqda.

Mazkur jarayonda davlatimiz rahbari tomonidan ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, o'z iste'dodlarini to'laqonli ifoda eta olishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilayotgan e'tibor ham muhim o'rin tutmoqda.

Albatta, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni shu muqaddas yurtimizning tinchligi va ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga qodir bo'lgan barkamol avlod etib tarbiyalash masalasi – kuch tuzilmalarining zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Xususan, Surxondaryo viloyatida joylashgan "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi o'quvchilari ham respublikamizdagi harbiy akademik litseylar va tashkilotlar tashabbusi bilan o'tkazib kelinayotgan turli ko'rik-tanlov hamda musobaqalar, festival va fan olimpiadalarida munosib ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Jumladan, o'quvchi-yoshlar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Zakovat" intellektual o'yinlari ham bugungi kunda kelajagimiz bunyodkorlarining ilmiy, mantiqiy hamda ijodiy imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qilayotgani bois litsey o'quvchilaridan tashkil topgan "Yosh chegarachilar" jamoasi o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan turnirning Surxondaryo viloyati bosqichida faxrli 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Quvonarlisi, joriy yilning 25–27-aprel kunlari poytaxtimizda bo'lib o'tgan respublika bosqichida 100 ga yaqin ta'lim muassasasi



o'quvchilaridan tashkil topgan jamoalar orasidan Samarqand iqtisodiyot va servis akademik litseyi jamoasi uchinchi, IIV Farg'ona akademik litseyi jamoasi ikkinchi va "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritib, turnirning mutlaq g'olibiga aylandi.

– Albatta, bunday natijaga erishish oson bo'lmadi. Mana, uch yildirki, hududiy turnirlarda birinchi, respublika bosqichida esa uchinchi o'rinni egallab kelayotgan edik. Ishtirokchi jamoalar sonining ko'pligi, o'quvchilarning aqliy salohiyati va yetukligi ham albatta bizga kuchli raqobat tug'dirardi. Ammo o'tgan vaqt davomida erishgan muvaffaqiyatlarimiz

bilan kifoyalanmay, olg'a intilishdan to'xtamadik va oxir-oqibat kutilgan natijaga erishdik. O'quvchilarimizning aynan "Zakovat" intellektual o'yinida g'olib bo'lishlari esa biz, ustoz-murabbiylarning faoliyatimizga



ham berilgan katta baho aslida, – deydi jamoa murabbiysi G'olibjon Zulpiyev.

O'quvchilar poytaxtimizning diqqatga sazovor joylari bilan tanishganlaridan so'ng Surxondaryoga – jonajon litseylari tomon yo'l oldi. Bu yerda esa g'oliblarni safdoshlari va ustozlari ko'tarinki kayfiyatda kutib oldi.

– Bugun aslo yodimizdan chiqmaydigan kun bo'ldi. Chunki birinchi bo'lish uchun juda ko'p harakat qildik. Bo'sh vaqt topdik deguncha jamoalarga bo'linib, o'zaro "Zakovat" turnirlarini tashkil etardik. Bu jarayonda ustozlarimiz ham bizni har jihatdan qo'llab-quvvatladi. Ularga jamoamiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiramiz. Bu g'alaba bizni yanada kuchli bo'lishga va yangi-yangi marralar sari intilishga ruhlantiradi. Zero donolar aytganidek: "Kuch bilim va tafakkurda!" deydi 2-kurs o'quvchisi Adham Rahimov.

Biz litsey jamoasini erishilgan muvaffaqiyat bilan samimiy qutlagan holda bitiruvchi yoshlarga o'zlari istagan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, kelgusida yurtimiz ravnaqi uchun munosib hissa qo'shadigan malakali mutaxassislar bo'lib yetishishlarini tilab qolamiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Ko'nikma

# O'QITUVCHILAR AMALIY mashg'ulotlarda



Ta'lim va harbiy tayyorgarlik o'rtasidagi amaliy uzviylikni ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbus sifatida baholanayotgan mazkur tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning amaliy tayyorgarligini oshirish hamda o'quv jarayonlariga zamonaviy va samarali yondashuvlarni keng joriy etishdan iboratdir. Chunki aynan ustoz o'quvchi-yoshlar ongi va dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Dastlab mudofaa ishlari boshqarmasi mas'ullari tomonidan mamlakatimizda ta'lim

olish va aniq o'q otish usullari bo'yicha dastlabki yo'riqnomalarni oldi. Har bir bosqich mutaxassislar nazorati ostida amalga oshirildi.

Mashg'ulotlar davomida o'qituvchilar belgilangan masofalardan turib nishonlarga o'q otish mashqlarini bajarib, nazariy bilimlarini real sharoitlarda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayon ularning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda mas'uliyat hissini ham yanada oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur o'quvlar o'qituvchilarning harbiy bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish, ularning o'quvchilarga



Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi tomonidan barcha umumta'lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari ishtirokida "Termiz" umumqo'shin poligonida amaliy o'q otish mashg'ulotlari tashkil etildi.

sohasida olib borilayotgan islohotlar, yoshlarni har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosati hamda ushbu amaliy mashg'ulotning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shundan so'ng guruhlarga bo'lingan ishtirokchilar poligon hududida tashkil etilgan o'quv nuqtalariga yo'naltirildi. Bu yerda ular qurol-yarog'lardan xavfsiz foydalanish qoidalari, asosiy texnika xavfsizligi talablari, nishonga

sifatli ta'lim berishdagi mas'uliyatini kuchaytirish hamda Vatan himoyasiga doimo shay, bilimli va jismonan barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**III darajali serjant Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni

Tahlil va yakun

## NATIJALAR SARHISOB QILINDI

Farg'ona garnizonida joylashgan harbiy qismda o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan sarhisob yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Okrug qo'shinlari qo'mondonligi rahbarligida tashkil etilgan mazkur yig'ilishda hududdagi barcha harbiy qism va muassasalar faoliyati atroflicha ko'rib chiqildi. Qo'mondon o'rinbosarlari o'z yo'nalishlari bo'yicha batafsil ma'ruzalari orqali o'tgan davrda erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va mulohazalarni ilgari surdi.

Yig'ilish davomida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi alohida e'tibor markazida bo'ldi. Bu yo'nalishda tizimli, manzilli va zamon talablariga mos chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarurligi

ta'kidlandi. Zero Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan yoshlar har qanday jamiyatning mustahkam tayanchi va kelajagi hisoblanadi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar o'rtasida korrupsion holatlarning oldini olish, xizmat intizomini mustahkamlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha qat'iy va ta'sirchan choralar ko'rish yuzasidan muhim ko'rsatmalar berildi. Bu borada har bir rahbar va mas'ul shaxs zimmasiga alohida mas'uliyat yuklatilishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmay, balki yanada yuqori marralarni zabt etish zarurligi alohida aytib o'tildi. Xususan, zamonaviy

texnologiyalarni puxta o'zlashtirish, ularni qo'shinlar faoliyatiga keng joriy etish hamda harbiy xizmatchilarning bilim va intellektual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur sarhisob yig'ilishi harbiy tuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish va kelgusidagi aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etdi.

**Gulihumo MAJIDOVA,**  
Sharqiy harbiy okrug  
matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Harbiy meros

# AMIR TEMURNING QUROL-ASLAHALAR BORASIDAGI QARASHLARI

Sohibqiron Amir Temurning o'z "Tuzuklar"ida:

"Davlatlarning tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlat-u saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim", deb qayd etgan so'zlarini e'tiborga olsak, u zot har bir mamlakatning taraqqiyoti hamda ularning nima sababdan tanazzulga yuz tutganini chuqur o'rganish jarayonida qo'shin g'alabasini har tomonlama ta'minlamay turib, jangga kirish aqlli sarkardalarning ishi emasligi bo'yicha saboq olgan.

Chunonchi, qo'shin qurol-aslahalarining tutgan o'rni va ularni takomillashtirish ishlariga ham dolzarb vazifalardan biri sifatida jiddiy qaraganki, u zotning boshqa ko'pgina masalalar qatorida qurol tutgan askarning ma'naviy olamiga e'tibor bergani, turli katta-kichik janglarda qo'llagan qurol-aslahalari, qo'shinning uzoq yo'l bosish holatlari, oziq-ovqat

ta'minoti, umuman mag'lub bo'lmaslik tarixini o'rganish bizga juda ko'p saboq beradi.

Ko'hna tarix oynasidan o'tmishga, moziy qa'riga boqqan sohibqiron o'tmishda qurol-aslahalarning paydo bo'lishi, ularning harbiy maqsadlarda ishlatila boshlagan davrlari va qanday takomillashtirib borilgani bilan jiddiy qiziqqani bor haqiqat. Chunonchi, davlat tepasiga kelgach, nafaqat dastlabki ovchilik, mehnat va harbiy qurollar, balki Ahamoniylar, Yunonlar, Xunlar, Chin davlati, Arablar, Chingiziyalarning jangovar qurol-aslahalari nusxalaridan foydalandi va ularni birma-bir takomillashtirib bordi. Bu holat u zotning naqadar teran tafakkur egasi bo'lganini, bir paytning o'zida bunyodkorlik, ilm-fan va xalqqa mehr ko'rsatish barobarida harbiy soha rivojiga ham juda jiddiy ko'z bilan qaragani biz uchun katta dars vazifasini o'taydi.

Amir Temur Kushon davridagi o'ziga xos bo'lgan va takomillashtirilgan eng yaxshi kamon namunalarini sinchiklab ko'zdan kechirishni ham unutmadi, chunki bu kamon turi suyak va mustahkam ashyolardan, ya'ni beshta pishiq butlovchi qismdan tashkil topgan edi. Yana eng muhimi, uni Turonzaminning mohir ustalari ixtiro etgan edi.

Kushon davlati davrida eng qudratli qurol hisoblangan kamonning maxsus

bu turi aynan Markaziy Osiyodan Eronga, undan o'tib, g'arbdan Shotlandiyagacha, janubda Hindistongacha bo'lgan keng hududda tarqalganini bilamiz.

Bu manbalar Amir Temurga kuch va

ishonch berdi, Turonzaminda maxsus harbiy qurol-aslahalar korxonalarini tashkil etdi hamda aholini ish bilan band etish, kundalik ehtiyojlarini qoniqtirish uchun qator mahallalarda ham shunday korxonalarini vujudga keltirdiki, bu uning naqadar kuchli iqtisodchi bo'lganini ham ko'rsatadi. Aynan oila sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotga, birinchidan, talabgor bor bo'lsa, ikkinchidan, shu oilalarda o'sayotgan yosh avlod uchun hunarmandlik, qurolsozlik ishlari tarbiya va saboq maktabi bo'ldi.

Boshqa muhim jihati, Yevropa va erkinlik olgan rus knyazliklari ham aynan Amir Temur va Temuriylar davri qurol-aslahalaridan namuna olib, ularni takomillashtirdi va zamonaviy qurol-yarog'larga ega bo'lganlari tufayli keng hududlarni qo'lga kiritish boshladi. Ikkinchi jahon urushi paytida Amir Temurning "Ra'd" (*ma'nosi - "momoqaldiroq"*) to'pi va shunga o'xshash o'tochar artelleriyalari asosida mashhur "Katyusha" ixtiro qilingani ham bor haqiqatdir.

**Polkovnik F. QODIROV,**  
**Harbiy xavfsizlik va mudofaa**  
**universitetining**  
**Sharqiy harbiy okrug**  
**fakulteti boshlig'i o'rinbosari**

Ajdodlar izidan



## IQTIDOR VA TAFAKKUR SINOVI

Vatanparvarlik, yuksak ma'naviyat va intellektual salohiyatni yuksaltirish bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu maqsadda Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan yosh harbiy xizmatchilar o'rtasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, intellektual musobaqalar muntazam ravishda tashkil etib kelinmoqda.

Ana shunday ezgu tashabbuslardan biri sifatida "Ajdodlar izidan" intellektual o'yinining okrug bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi. Tadbir harbiy xizmatchilarning bilim darajasini oshirish, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini

shakllantirish hamda ajdodlar merosiga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

Bellashuvda jami 6 ta jamoa ishtirok etdi. Har bir jamoa 6 nafardan bilimdon, faol va tashabbuskor harbiy xizmatchidan tarkib topdi.

Ishtirokchilar o'z bilimlari, tezkor fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati va jamoaviy hamkorlikdagi harakatlari bilan ajralib turdi.

Jarayon tarix va adabiyot, harbiy bilimlar, mantiqiy tafakkur, ma'naviyat va ma'rifat, ajdodlar merosi yo'nalishlarini qamrab oldi. Shuningdek, o'yin savollari "Ulug'bek xazinasi", "Yulduzli tunlar", "O'n besh yoshli kapitan", "Jadidlar" va "Uyg'onish" asarlari hamda tarixiy manbalarga tayangan holda tuzildi.

Mazkur asarlar ishtirokchilarning nafaqat bilim darajasini sinovdan o'tkazdi, balki ularning ma'naviy olamini boyitish va milliy g'ururni oshirishga xizmat qildi.

Bilimlar to'qnashuvi nihoyatda qizg'in va murosasiz bahslarga boy tarzda kechdi. Har bir jamoa berilgan savollarga tezkorlik bilan javob berishga intildi. Ayniqsa, murakkab mantiqiy savollar va tarixiy bilim talab etuvchi topshiriqlar ishtirokchilardan chuqur tahlil, diqqat va yuqori intellektni talab qildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, eng kuchli bilim, jamoaviy hamjihatlik va tezkor fikrlashni namoyon etgan jamoa g'olib deb topildi. Ular Mudofaa vazirligi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

"Ajdodlar izidan" intellektual o'yini harbiy xizmatchilar o'rtasida bilim, ma'naviyat va vatanparvarlik ruhini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan muhim tadbirlardan biri bo'ldi.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,**  
**Markaziy harbiy okrug matbuot**  
**xizmati bosh mutaxassisi**

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Mutolaa madaniyati

# RAQQAMLI ASRDA mutolaa madaniyati

Bugungi kunda global axborot makonidagi ziddiyatlar va "intelektual o'yinlar" davrida har bir harbiy xizmatchining ma'naviy dunyoqarashi uning jangovar shayligi kabi muhim ahamiyat kasb etmoqda.



harbiy xizmatchining shaxsiy kutubxonasi bo'lishiga erishish.

Ko'pincha biz "qurollangan askar" deganda faqat zamonaviy texnika va vositalarni ko'z oldimizga keltiramiz. Biroq eng kuchli qurol – bu bilim va sog'lom tafakkur. Uning yagona manbai esa kitobdir.

## Raqamli "shovqin" va mutolaa ehtiyoji

Biz yashayotgan XXI asr – tezkor axborot asri. Kun davomida ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan qisqa va tarqoq ma'lumotlar inson miyasini toliqtirib, tizimli fikrlashdan uzoqlashtiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, ekrandan matn o'qish mutolaa qilayotgan kitobingizni yuzaki qabul qilishga olib keladi.

Kitob mutolaasi esa bu chuqur diqqat (*deep work*) mashqidir. Harbiy sohada qaror qabul qilish uchun talab etiladigan sovuqqonlik, vaziyatni keng qamrovli tahlil qilish qobiliyati aynan badiiy va ilmiy adabiyotlarni muntazam o'qish orqali shakllanadi.

## Strategik fikrlash maktabi

Buyuk sarkarda Amir Temurning "Temur tuzuklari" dan tortib jahon harbiy san'ati durdonalarigacha – barchasi mutolaa orqali bizga yetib kelgan.

Kitob o'qigan harbiy xizmatchi: tarixiy tajribani o'zlashtiradi, o'tmishdagi g'alaba va mag'lubiyatlar sabablarini kitobdan izlaydi; tasavvur olamini kengaytiradi, kutilmagan vaziyatlarda nostandart yechimlar topishga o'rganadi; nutq madaniyatini yuksaltiradi, bu esa shaxsiy tarkib bilan ishlashda, buyruq va topshiriqlarni aniq yetkazishda muhimdir.

## Mutolaa – ma'naviy immunitet asosi

Bugun "g'oyalar jangi" ketayotgan bir paytda, yosh harbiy xizmatchilarning qalbi va ongini yot qarashlardan himoya qilishda kitob eng ishonchli qalqondir. Klassik adabiyotlarni o'qigan inson oqni qoradan, haqiqatni soxta va dalardan ajrata oladigan mustaqil fikrga ega bo'ladi. Vatandarlik tuyg'usi ham shunchaki shiorlarda emas, balki tarix va adabiyot orqali yurakka singgan bilimlar asosida mustahkamlanadi.

## Armiyada kitobxonlik an'analari

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi tizimidagi kutubxonalar va "ma'naviyat xonalari" zamon talablariga mos ravishda yangilanmoqda. Ammo asosiy maqsad – binolarni bezash emas, balki har bir

## Qanday qilib kitobxon bo'lish mumkin?

Xuddi jismoniy tayyorgarlik kabi, mutolaa uchun ham kunlik jadvaldan aniq vaqt (*masalan, uxlashdan oldin 20 daqiqa*) ajratish.

Nafaqat harbiy nizomlar, balki jahon adabiyoti, milliy she'riyat va psixologik asarlar bilan ham tanishish. O'qilgan kitoblar haqida safdoshlar bilan fikr almashish. Bu jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.

## Xulosa

Xalqimizda "Bilagi zo'r birni yiqitar, bilimi zo'r mingni", degan dono naql bor. Bizning kuchimiz faqat qurolimizda emas, balki kitob bilan boyitilgan aql-zakovatimizda. Shunday ekan, aziz harbiy xizmatchilar, unutmang: siz o'qiyotgan har bir kitob Vatandar himoyasi yo'lida qo'yilgan mustahkam qadamdir.

Umidaxon ABDAKOVA,  
O'zJOKU 4-bosqich talabasi

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi

# IBRAT MAKTABI



Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismda Toshkent shahri Shayxontohur va Chilonzor tumanida istiqomat qiladigan, probatsiya ro'yxatida turadigan yoshlar hamda harbiy qismga birlashtirilgan 80 ga yaqin alohida ishlash talab etiladigan yoshlar ishtirokida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Profilaktik davra suhbatida tashkil etilgan mazkur tadbir harbiy qism rahbariyati, hokimlik va huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari ishtirok etdi.

Harbiy orkestr guruhi tomonidan ijro etilgan musiqa sadolari ostida harbiy qismga tashrif buyurgan yoshlar dastlab u yerda yaratilgan shart-sharoitlar va jangovar qurol-aslahalar ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Tadbir samimiy davra suhbatida bilan davom etdi. Unda so'zga chiqqan mas'ullar mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyat, qulayliklar va shart-sharoitlar haqida batafsil ma'lumotlar berdi. Shu bilan

birga, bugungi kunda yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik holatlari va ularning salbiy oqibatlariga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Faol muloqot tarzida kechgan tadbir o'g'il-qizlar ham o'z qiziqishlari va kelajakdagi rejalar haqida so'zlab berdi.

Yakunda yoshlarning qiziqishlaridan, takliflaridan kelib chiqqan holda kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan rejalar belgilandi, ta'lim va sport to'garaklariga jalb qilish bo'yicha kelishib olindi.

TOQQQ matbuot xizmati

Sharafli burch

# ENG KUCHLI QAL'A – BU YURAKDAGI *Vatanga sadoqat*

Vatanparvarlik – inson qalbida eng erta uyg'onadigan, ammo eng kech shakllanadigan yuksak tuyg'ulardan biri hisoblanadi. U shunchaki hissiyot emas, balki insonning butun hayot yo'lini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Harbiy sohada esa vatanparvarlik oddiy fazilat emas u askarning ichki quroli, ruhiy tayanchi va eng muhim strategik kuchidir. Bugungi zamonaviy dunyoda davlat xavfsizligi faqatgina texnika, raketa tizimlari yoki qurol-aslahalar bilan cheklanib qolmaydi. Endi kurash maydoni kengaygan – u ong, mafkura va axborot maydonini ham o'z ichiga oladi. Shunday sharoitda vatanparvarlik jamiyatni birlashtiruvchi, ichki barqarorlikni ta'minlovchi eng kuchli "ma'naviy himoya qalqoni"ga aylanadi. Agar qurol tashqi xavfga qarshi ishlatilsa, vatanparvarlik ichki zaifliklarni yo'q qiladi. U beparvolik, loqaydlik va mas'uliyatsizlikka qarshi kurashadi.

Shuning uchun ham har bir davlat o'z kelajagini, avvalo yosh avlod tarbiyasida, ularning qalbiga Vatanga muhabbat urug'ini singdirishda ko'radi.

Vatanparvarlikning eng muhim jihati shundaki, u faqat urush paytida emas, balki tinch hayotda ham o'z kuchini namoyon etadi. Yurt ravnaqi uchun qilingan har bir halol mehnat, ilmga intilish, tartib-intizomga rioya qilish – bularning barchasi vatanparvarlikning amaliy ko'rinishi.

Demak, vatanparvar inson faqat jang maydonida emas, balki kundalik hayotda ham yurt himoyachisidir. Harbiy xizmatda esa bu tushuncha yanada chuqur ma'no kasb etadi. Askarning qo'lida zamonaviy qurol

bo'lishi mumkin, ammo uning qalbida Vatanga sadoqat bo'lmasa, u qurol to'liq kuchga ega bo'lmaydi.

Aksincha, kuchli vatanparvarlik ruhiga ega askar eng oddiy sharoitda ham katta jasorat ko'rsata oladi. Shu sababli harbiy tayyorgarlik nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-ruhiy tarbiyani ham o'z ichiga oladi.

Tarixga nazar tashlasak, har qanday g'alabani ortida faqat texnika emas, balki yuksak ruh, qat'iy iroda va Vatanga bo'lgan muhabbat turganini ko'ramiz. Yurtini sevgan inson uchun eng og'ir vazifa ham sharafga aylanadi.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

U o'z burchini shunchaki majburiyat sifatida emas, balki muqaddas vazifa sifatida bajaradi.

**G'iyos YODGOROV,**  
**O'zMU Harbiy tayyorgarlik**  
**o'quv markazi kursanti**

Biokiberxavfsizlik

## Ong va texnologiya CHEGARASIDAGI *yangi jang maydoni*



Bugungi zamon urushlari endi faqat yer, havo yoki axborot maydonida emas, ular inson ongiga yaqinlashmoqda. Biokiberxavfsizlik esa aynan shu yangi frontni himoya qiluvchi yo'nalishdir.

Zamonaviy neyrotexnologiyalar, xususan "Brain-Computer Interface" (BCI) tizimlari orqali inson miyasi va qurilmalar o'rtasida bevosita aloqa o'rnatilmoqda. Bu texnologiyalar nogironligi bo'lgan insonlarga harakatlanish, gapirish yoki qurilmalarni boshqarish imkonini bermoqda, jumladan "Neurali", "BrainGate" kabilar. Ammo har qanday texnologiya kabi, uning ham barqarorligi to'liq emas.

"Neural hacking" bu miya signallariga noqonuniy aralashish, ularni o'zgartirish yoki soxtalashtirish orqali tizimni aldashga qaratilgan kiberhujum turidir. Bunday hujumlar nafaqat qurilmalarni, balki insonning niyatini ham buzishi mumkin. Tasavvur qiling: inson chapga harakat qilishni xohlaydi, ammo tizim o'ngga buyruq beradi. Bu oddiy xatolik emas, xavfsizlik muammosi.

Shu sababli biokiberxavfsizlikning asosiy vazifasi miya signallarining yaxlitligini saqlash, hujumlarni aniqlash va inson niyati bilan tizim buyruqlari o'rtasidagi moslikni tekshirishdir.

Zamonaviy yondashuvlar signal tahlili, sun'iy intellekt va xavfsizlik mexanizmlarini birlashtirgan holda ishlaydi. Ular signalga shovqin qo'shilishi, eski signalni qayta yuborish (replay), soxtalashtirish (spoofing)

yoki signalni buzish kabi tahdidlarni aniqlashga qodir.

Harbiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu yo'nalish strategik ahamiyatga ega. Chunki kelajakda askarlar, uchuvchisiz tizimlar yoki aqlli texnika bevosita inson miyasi orqali boshqarilishi mumkin. Demak, biokiberxavfsizlik bu nafaqat texnologik, balki milliy xavfsizlik masalasidir.

Xulosa qilib aytganda, biokiberxavfsizlik – bu inson ongini himoya qilish. Kelajakda eng katta janglar qurol bilan emas, balki axborot va ong ustidan nazorat uchun bo'lishi mumkin. Shu sababli bu yo'nalishni rivojlantirish bugunning muhim vazifalaridan biridir.

**Diyorbek SODIQOV,**  
**Axborot-kommunikatsiya**  
**texnologiyalari va harbiy aloqa**  
**instituti 4-bosqich kursanti**

Fikr



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

## Sun'iy intellekt

### JURNALIST IJODKORLIGINING KUSHANDASIMI?

Jurnalistikaga sun'iy intellekt texnologiyalari shiddat bilan kirib keldi. Ayni vaqtda soha vakillari yangiliklar, xabarlar yozish va hatto, olinajak intervyu uchun savollar tuzishda ham chatbotlar yordamidan foydalanmoqda. Savol tug'iladi: sun'iy intellekt jurnalist ijodkorligini o'ldirib qo'ymayaptimi?

Bir tomondan, sun'iy intellekt jurnalist ijodkorligini o'ldiryapti, cheklab qo'yyapti, deyish ham xatodek. Bilasiz, jurnalistlar ko'p vaqtini texnik vazifalarni ado etish yo'lida sarflaydi: statistik ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish, fakt-cheking shular jumlasidan. Sun'iy intellekt esa jarayonning kechuvini jadallashtiradi. Oqibatda muallif bor diqqat-e'tiborini materialni tayyorlashga qaratadi: ko'tarilgan

masalaning mohiyatini ochib berish, "sabab – oqibat" zanjirida tahlil qilish, muammoni o'rta qo'yish, mushohada yuritish va h.k.

Ta'kidlash joizki, sun'iy intellektdan haddan tashqari foydalanish jurnalstning ijodkorlik qobiliyatiga daxl qilishi mumkin. Chatbotlar ko'pincha internet tizimida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni generatsiya qiladi. Sirasini aytganda, sizga mutlaq

yangi g'oya, fikr taqdim etmaydi. Tadqiqotchi, jurnalistlar tomonidan yozilgan materiallarni generatsiya qilib beradi. Yuborilgan "prompt" (ya'ni chatbot bajarishi lozim bo'lgan vazifa)ga moslaydi. Natijada standart, o'xshash, takroriy fikrlardan iborat bo'lgan materiallar yuzaga keladi. Agar jurnalist sun'iy intellektga tayanib ish ko'rsa, jurnalistlarning mavzuga nisbatan yondashuvi bir xil bo'lib qoladi. Original fikrlar kamayadi. Alalxusus, muallifning o'ziga xos uslubi yo'qoladi.

Xalqimizda "Asalning ham ozi shirin", degan naql bor. Sun'iy intellektdan foydalanish – aybli ish yoki xato, kamchilik emas. Me'yorni unutmasak bo'lgani. Aks holda, na mantiqiy izchillik, na o'ziga xos ifoda uslubiga ega bo'lgan "standart" jurnalistik asarlar mediada urchib ketadi.

**Ulug'bek SHAROBIDDINOV,**  
**O'zJOKU talabasi**

# POLEN ALLERGIYASI XAVFLI(MI?)

Polen allergiyasi (*Allergic rhinitis*), o'simliklar gulchanglari (*polen*) ta'sirida rivojlanadigan allergik kasallik bo'lib, halq orasida "pichan bezgak" deb ham ataladi.

Polen – yong'oq, chinor, qayin va terak daraxtlari, paxta guli, kanop, shuvoq, sho'ra, g'alla-don o'simliklari va ambroziya kabi yovvoyi o'tlarning reproduktiv hujayralari, ya'ni gulchanglari bo'lib, havoda shamol orqali boshqa o'simliklarga o'tib yuradi.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda 700 dan ortiq allergiya chaqiruvchi o'simlik borligi aniqlangan. Ushbu allergenlar havo orqali organizmga tushganda inson tanasining yuqori sezuvchanligi tufayli immun tizimi buzilishi natijasida yot moddalarni xavfli sifatida qabul qiladi va himoya tizimini faollashtiradi. Allergiyaning kelib chiqishida inson nasli, asab va endokrin tizimidagi o'zgarishlar asosiy rol o'ynaydi. Allergen tushgandan keyin tanada bir qator bioximik jarayonlar kechadi, gistamin, serotonin ishlab chiqarilishi natijasida organ va to'qimalar jarohatlanadi. Allergiya barcha yoshdagilarda kuzatilishi mumkin.

Bahorda havoda gulchang ko'proq bo'lgani sababli bu davrda allergik reaksiyalar tez-tez uchraydi. Ko'pincha ertalab va kunduzi quruq va shamolli ob-havoda tabiat qo'ynida yurganda kasallik belgilari yuzaga chiqadi. Bunda burun bitishi yoki oqishi, aksirish, ko'zlarni qichishishi, qizarishi va yosh oqishi, tomoq qichishishi, hid sezishning pasayishi, ba'zan yo'tal yoki nafas olishning qiyinlashuvi kuzatiladi. Agar bu belgilar kuchayib, nafas olish og'irlashsa, o'zboshimchalik bilan davolanmasdan, mutaxassis shifokorga murojaat etish lozim.

Polen allergiyasini tashxislashning bir necha usullari bor. Shifokor avvalambor bemorga allergiyaning kelib chiqish sabablari, qachon paydo bo'lgani, allergiya belgilari haqida savollarga aniqlik kiritadi. Bundan tashqari, oilaning boshqa a'zolarida ham allergiya bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Laboratoriya usulda qondagi immunoglobulin E (*IgYe*) antitanalari darajasi o'lchanadi. Bundan tashqari allergiyalar uchun qator testlar mavjud. Shubha qilinayotgan allergen tananing bel sohasiga kerakli miqdorda maxsus metall disklar yordamida qo'yiladi va 48 soatdan keyin terining reaksiyasi tekshiriladi.

Davolanish uchun albatta, birinchi navbatda, mutaxassisga murojaat qilish lozim. O'zboshimchalik bilan kimlarnidir tavsiyasiga ko'ra dori preparatlaridan foydalanish orqali odam o'ziga yondosh kasalliklarni orttirib olishi mumkin. Dorilar allergiya belgilarini bartaraf etishga yordam beradi, ammo uni davolay olmaydi. Antigistamin preparatlar yordamida allergiyaning kamaytirish mumkin. Burun spreylari va ko'z tomchilari yordamida kasallik belgilaridan vaqtincha qutulish mumkin. Ularni muntazam qo'llaganda burun yo'llarining surunkali kasalliklari kelib chiqishi mumkin. Shu sababli ushbu dori vositalari shifokor nazorati ostida qo'llash maqsadga muvofiq.

Ayrim holatlarda shifokor nazoratida allergenga "o'rgatish", ya'ni allergen-spetsifik immunoterapiya o'tkaziladi. Autovaksinatsiya-allergik kasalliklar



uchun muqobil davolash usuli hisoblanadi. Autovaksinani qo'llash inson organizmining turli allergenlarga qarshi turishini ta'minlab beradi. Bu usul barcha allergik kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Autovaksinaning mohiyati shundaki, bemorning o'zining florasidan to'g'ridan to'g'ri olinib tayyorlangan autovaksinani qo'llash boshqa vositalarga qaraganda ko'proq samaraga ega.

Polen allergiyasini to'liq yo'qotish qiyin, lekin nazorat qilish mumkin. Kasallikdan saqlanish uchun bahor faslida, ayniqsa ertalab tashqarida yurishni cheklash, ko'chada yurganda niqob taqish, ko'zoynak taqish, derazalarni yopiq saqlash, ko'chadan kelgandan keyin yuvinish tavsiya etiladi.

**Tibbiy xizmat katta leytenanti  
R. ESHMAMATOV,  
Qurolli Kuchlar xizmatchisi  
B. AHMEDOV**

## Mulohaza

Vaqt eng bebaho va qaytarib bo'lmaydigan ne'mat bo'lib. Har bir lahzani foydali ishlarga sarflash, fursatni g'animat bilish inson kamolotining asosiy shartidir. Vaqtni to'g'ri taqsimlash va rejalashtirish orqali nafaqat yuksak maqsadlarga erishish, balki hayotni mazmunli o'tkazish ham mumkin.



## qadri – umr mazmuni



Har bir soniya – qaytmas imkoniyat, shuning uchun uni qadrlash har birimizning burchimiz. Vaqtni qadrlash shunchaki tez ishlash yoki band bo'lish degani emas, bu har bir harakatni maqsadga muvofiq yo'naltirish, bilim olish, shaxsiy va ma'naviy rivojlanishga sarmoya kiritishdir. Donolar aytganidek, "Vaqtni qilib kabidir, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi".

Shu sababli har bir lahzani to'g'ri baholash, uni foydali va samarali ishlarga sarflash insonni kamolot sari yetaklaydi. Afsuski, ko'pchilik vaqtni behuda o'tkazish bilan o'z kelajagini boy beradi, bir soat bekor o'tgan vaqt aslida yo'qolgan imkoniyatdir. Shu bilan birga, vaqtni samarali ishlatmaslik

stress va ruhiy charchoqqa, maqsadlarni amalga oshirishning qiyinlashishiga olib keladi.

Vaqtni boshqarishning samarali yo'llari ko'p. Avvalo, kunlik ishlarni oldindan rejalashtirish, muhim va zarur ishlarni birinchi navbatda bajarish foydalidir. Chalg'ituvchi omillardan, masalan ijtimoiy tarmoqlar, keraksiz suhbatlar va ortiqcha mashg'ulotlardan voz kechish samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, dam olish va tana, ongni tiklashga vaqt ajratish ham juda muhim. O'rganish, sport, kitob o'qish, yangi ko'nikmalarni egallash va o'z ustida ishlash orqali har bir daqiqani boy bermaslik mumkin. Shu tariqa inson o'z hayotini mazmunli va samarali o'tkazadi, nafaqat

bugungi kunni, balki kelajakni ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, vaqt – hayot demak. Uni qadrlash o'zimizni va kelajagimizni qadrlashdir. Vaqtni to'g'ri ishlatish orqali inson nafaqat maqsadlariga yetadi, balki o'zini ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlantiradi. Har bir soniya – bu imkoniyat, uni to'g'ri ishlatish esa sizning muvaffaqiyat sari bosgan qadamingiz. Shu bois vaqtni qadrlash va uni reja asosida ishlatish har bir insonning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

**G'iyos YODGOROV,  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Harbiy tayyorgarlik  
o'quv markazi kursanti**

Imtiyoz

## INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHİYAT



Yangi O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan. Ayniqsa, Vatan himoyasida xizmat qilgan yoshlar hamda harbiy xizmatchilarning farzandlarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar izchil va aniq maqsadga yo'naltirilgan xususiyat kasb etmoqda. Bu borada davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar yoshlarning nafaqat ta'lim olishi, balki jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yoshlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ular uchun munosib sharoitlar yaratilishi zarur. Xususan, harbiy xizmatni o'tagan yigitlar va harbiylar farzandlari uchun ta'lim sohasida berilayotgan imtiyozlar ana shu ezgu g'oyaning amaliy ifodasidir.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o'qituvchi sifatida shuni alohida qayd etmoqchimanki, harbiy xizmat maktabidan o'tgan talabalar hamda harbiy xizmatchilar farzandlari ta'lim jarayonida o'zining yuqori intizomi, mas'uliyati va qat'iyati bilan ajralib turadi. Ular bilim olishga ongli yondashadi, vaqt qadrini chuqur anglaydi va oldiga aniq maqsad qo'yib harakat qiladi.

Harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlar uchun armiya haqiqiy hayot maktabidir. Bu maktabda ular vaqtni to'g'ri taqsimlash, buyruqlarni o'z vaqtida bajarish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi muhim fazilatlarni egallaydi. Shu bois ular oliy ta'lim muassasasiga kelganda allaqachon shakllangan, hayotiy pozitsiyasi aniq bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning farzandlari ham o'ziga xos tarbiya muhitida voyaga yetadi. Ota-onasining kasbi tufayli ularda tartib-intizom, mas'uliyat va Vatanga muhabbat tuyg'ulari erta shakllanadi. Ayniqsa, tavsionoma asosida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan bunday yoshlar o'zlariga bildirilgan ishonchni chuqur his etadi va uni oqlashga intiladi. Ular uchun ta'lim nafaqat shaxsiy yutuq, balki oilaviy an'analarni davom ettirish, Vatan oldidagi mas'uliyatni yanada chuqur anglash demakdir.

Bunday talabalar jamoada ishlash ko'nikmasiga ham ega. Ular guruh ishlarida faol ishtirok etadi, tashabbus ko'rsatadi va ko'p hollarda yetakchilikni o'z zimmasiga oladi. Bu esa ta'lim jarayonida sog'lom va samarali muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

- Harbiy xizmat menga hayotga boshqacha qarashni o'rgatdi, - deydi Behruzbek Bobomurodov. - Ilgari vaqtni unchalik qadrlamasdim, hozir esa har bir daqiqani rejalashtiraman. Institutda bu menga katta ustunlik beryapti.

- Otam Mudofaa vazirligida xizmat qilgani sababli berilgan imtiyozdan foydalanib, Sanoat muhandisligi va menejment fakultetiga grant asosida o'qishga qabul qilindim, - deydi Behruz Ro'zimurodov. - Men singari yoshlar uchun yaratilgan bunday imtiyoz bizga katta imkoniyatlar bermoqda. Bu nafaqat o'qishga kirishimga yordam berdi, balki o'zimga bo'lgan ishonchimni ham oshirdi.

Bugungi kunda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda bilimli, vatanparvar va mas'uliyatli kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kamola HAYDAROVA,**  
Toshkent kimyo-texnologiya  
instituti dotsenti v.b.

Unutilmas lahzalar

### MARRALAR SARI RUHLANTIRADI

Harbiy prokuratura organlarida xizmatni boshlaganimga bir yildan oshdi. Tizimda xizmatni olib borish, bilimimiz ustida ishlash, xodimlarning oila a'zolari uchun yaratilgan sharoitlar, amaliyotdagi ustozlarning va faxriylarimizning hayotiy o'g'itlari meni hamisha shijoat bilan xizmat qilishga va yangi marralar sari ruhlantiradi.

Shu bilan birga, yosh xodimlar ishtirokida tizimli ravishda o'quv va amaliy mashg'ulotlar tashkil etib kelinadi. Kuni kecha o'tgan uch kunlik respublika o'quv yig'ini ham bu boradagi tadbirlarning davomi bo'ldi. Unda prokuratura organlari faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi.

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mutaxassislari tomonidan raqamli dalillar bilan ishlash tartibi, uning huquqiy asoslari, ko'chma maxsus raqamli laboratoriya imkoniyatlariga doir mahorat darslari o'tildi.

Biz, yosh xodimlar Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida ham bo'lib, vazirlik va akademiya

tizimidagi hamda fuqaro muhofazasini ta'minlash borasidagi islohotlar, ularning natijalari bilan yaqindan tanishishga muayassar bo'ldik.

Madaniy tadbirlar, ayniqsa yurtimiz durdonalaridan biri, milliy o'zligimiz, ilm-fan, ta'lim va madaniyat timsoli bo'lmish Islom sivilizatsiyasi markaziga, "Olimpiya va paralimpiya shon-shuhrati" muzeyiga tashkil etilgan sayohatlar ham unutilmas lahzalarga boy bo'ldi.

**Adliya mayori Muhammad RUSTAMOV,**  
Guliston harbiy prokuraturasi tergovchisi

Milliy kurash

### PROKUROR KUBOGI

Buxoro harbiy prokuraturasi tomonidan viloyatdagi kuch tuzilmalarida xizmat qilib kelayotgan yosh harbiy xizmatchilar va xodimlar o'rtasida milliy kurash bo'yicha "Prokuror kubogi" uchun musobaqa o'tkazildi.

Murosasiz bellashuvlarda jami 7 ta jamoa va ular tarkibida 42 nafar ishtirokchi oltita vazn toifasida o'zaro kuch sinashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlar jamoalari qo'lga kiritdi.

Sovrindorlarga diplom, esdalik sovg'alar va g'olibga "Prokuror kubogi" tantanali ravishda topshirildi.

**Adliya katta leytenanti Dinmuhammad ALIYEV,**  
Buxoro harbiy prokuraturasi tergovchisi

Ijtimoiy himoya

### INSON QADRI UCHUN

Jizzax harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida ommaviy sayyor qabul, mehnat yarmarkasi va tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Jarayonga "Sog'lom avlod uchun" xayriya fondi Jizzax viloyati filiali mutaxassislari, shuningdek tumandagi tashkilot va idoralardan tegishli soha vakillari jalb etildi.

Dastlab harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari, pensionerlar hamda tuman aholisining murojaatlari tinglandi.

Qabulda tushgan murojaatlarning 20 tasi ijobiy hal etildi, 14 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirishlar berildi, yechimi vaqt talab qiladigan 1 ta murojaat nazoratga olindi.

So'ngra harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va mahalla aholisi "Sog'lom avlod uchun" xayriya fondi bilan hamkorlikda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Tadbir asnosida kitoblar ko'rgazmasi ham o'tkazildi.

**Adliya leytenanti Ismoil HAKIMOV,**  
Jizzax harbiy prokuraturasi tergovchisi

Tibbiy ko'rik

### XOTIN-QIZLAR E'TIBORDA

Samarqand harbiy prokuraturasi tomonidan viloyat kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, harbiy ayollar va mahallalarda yashovchi xotin-qizlar uchun bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar tashkil etilmoqda.

Shunday tadbirlarning navbatdagisi Urgut tumanida o'tkazildi. Dastlab, ochiq muloqot o'tkazilib, mas'ullar tomonidan xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga oid qonunchilikning mazmun-mohiyati atroflicha tushuntirildi.

Shundan so'ng opa-singillarimiz malakali tibbiy mutaxassislardan maxsus tekshiruvlardan o'tkazildi.

Jarayonda ishtirokchilarga zarur tibbiy tavsiyalar ham berib o'tildi.

**Adliya leytenanti Mirjalol MADRAHIMOV,**  
Samarqand harbiy prokuraturasi tergovchisi

O'quv yig'ini

### SINOVLARDA YANADA TOBLANDIK

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan tizimda xizmat qilayotgan yosh xodimlar ishtirokida "Yangi O'zbekiston Harbiy prokuraturasi - islohotlar yo'lida" mavzusida uch kunlik o'quv yig'ini tashkil etildi.

Unda men ham ishtirok etdim. Dastavval tarkibiy tarmoqlar mas'ullari hamda jalb etilgan ekspert-mutaxassislarning inson huquqlarini ta'minlash, qonun ustuvorligini va qonuniyligini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar va boshqa dolzarb mavzulardagi mashg'ulotlarda qatnashdik.

"Tergov poligoni"da real vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda prosessual qonun talablari doirasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarimizni mustahkamladik.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudida o'tgan ochiq muloqot va mashg'ulotlar esa biz yosh xodimlarning sudlarda prokuror vakolatini ta'minlash yo'nalishidagi ko'nikmalarimizni yanada boyitdi.

O'quv yig'in davrida quroldan o'tish, jismoniy tayyorgarlik, saf

tayyorgarligi bo'yicha amaliy, shuningdek qonunchilik bo'yicha nazariy imtihonlar topshirib, sinovlarda yanada toblandik.

O'rgangan bilimlarimiz kelgusi faoliyatimizda asqatishiga ishonaman.

**Adliya katta leytenanti Sardor BEBETOV,**  
Termiz harbiy prokurorining yordamchisi

## Hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi hamda "Global Pathway Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida anglashuv va hamkorlik memorandumi imzolandi.

Kelishuv shartlariga ko'ra, xususiyl bandlik agentligi sifatida faoliyat yuritayotgan "Global Pathway Group" MChJ "Vatanparvar" tashkilotiga haydovchilikka o'qitishga nomzodlar izlash va xalqaro darajadagi kadrlar tayyorlash bo'yicha maslahat berish

## ISTIQBOLLI MEMORANDUM imzolandi



bilan shug'ullanadi. O'z navbatida, jalb etilgan nomzodlar tashkilotning o'quv muassasalarida turli toifalar bo'yicha haydovchilik kasbiga o'qitiladi.

Tomonlar fuqarolarning transport vositalarini boshqarish sohasidagi bilimlarini oshirish, yo'l harakati xavfsizligini

ta'minlash, mamlakatning kadrlar salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va chet elda vaqtincha ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonliklarga ko'mak ko'rsatish bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladi.

Hamkorlik ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Hujjatning imzolanishi jarayonida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov va "Global Pathway Group" MChJ direktori Ravshan Sharipov mazkur hujjatda belgilangan vazifalarni o'z muddatida sifatli bajarilishi masalalarini va istiqboldagi rejalarni kelishib oldi.

## Rahbar va yoshlar



## Burch, jasorat, matonat!

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 500 nafar surxondaryolik yosh bilan uchrashdi.



Termiz harbiy garnizonining madaniyat markazida "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida o'tkazilgan ochiq muloqotda "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Tashkilot o'quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug'ullanish istagini bildirgan ishtirokchilarning murojaatlari tadbirning o'zidayoq ijobiy hal etildi.

Shuningdek, Husan Botirov yaqinlashib kelayotgan Xotira va qadrlash kuniga urg'u berib, bugungi tinch, osuda hayotimizni ta'minlash uchun jasorat namunasini ko'rsatgan, Vatan uchun jonini fido qilgan mard ota-bobolarimiz va yurtdoshlarimiz matonatini hech qachon unutmasligimiz lozimligini

ta'kidladi. "O'z navbatida, tinchlik hukm surayotgan bu aziz Vatanni asrab-avaylashimiz, uning xavfsizligi va ravnaqini ta'minlash yo'lida tinimsiz harakatda bo'lishimiz shart", dedi "Vatanparvar" tashkiloti rahbari.

Tadbirning eng esda qolarli jihati – "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlariga start berilishi bo'ldi.

"Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari har yili mamlakatimiz bo'ylab tuman (shahar), hududiy va respublika bosqichlarida o'tkaziladi. Respublika bosqichida g'olib bo'lgan jamoa O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogi bilan taqdirlanadi.

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi doirasida tashkil etilgan "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Biatlon", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Raketamodel" va "Kemamodel" sport seksiyalarining ko'rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

## O'zbekiston chempionati

## MUROSASIZ VA QIZG'IN kechgan musobaqa

Farg'ona shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan erkin uchar va radioboshqaruvli aviamodellar sporti bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.



Tashkil etilgan musobaqada Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 78 nafar sportchi o'zlari yasagan erkin uchar va radioboshqaruvli aviamodellarning uchish imkoniyatlarini namoyish etdi.

Ikki kun murosasiz va qizg'in kechgan chempionat quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

## F-1A sinfida:

- 1-o'rin: Shahboz Bafoyev (Buxoro v.);  
2-o'rin: Erkinboy To'yichiboyev (Andijon v.);  
3-o'rin: Ayder Bekirov (Toshkent v.).

## F-1B sinfida:

- 1-o'rin: Vladimir Katkov Vladimirovich (Toshkent sh.);  
2-o'rin: Bobur Hamidov (Navoiy v.);  
3-o'rin: Vladimir Katkov Viktorovich (Toshkent sh.).

## F-1C sinfida:

- 1-o'rin: Mansur Zelyayev (Toshkent sh.);  
2-o'rin: Dmitriy Kovalenko (Toshkent v.);  
3-o'rin: Ilyosxon Azimov (Toshkent sh.).

## F-3J sinfida:

- 1-o'rin: Alyor Yo'lbarsov (Andijon v.);  
2-o'rin: Aleksey Mundin (Toshkent v.);  
3-o'rin: Nodirbek Abdullayev (Farg'ona v.).

## F-3A sinfida:

- 1-o'rin: Valeriy Vardanyan (Farg'ona v.);  
2-o'rin: Mansur Sobitov (Toshkent v.);  
3-o'rin: Shohjahon Zaripov (Buxoro v.).

## F-5B sinfida:

- 1-o'rin: Bobur Hamidov (Toshkent v.);  
2-o'rin: Umidjon Tojimaxamatov (Toshkent sh.);  
3-o'rin: Asrorbek Ahrorov (Buxoro v.).

Jamoa hisobida 1-o'rinni Farg'ona viloyati, 2-o'rinni Toshkent viloyati va 3-o'rinni Toshkent shahri jamoalari egalladi. Yuqori o'rinlarni va g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilarga "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.







## Qahramonlar nomi barhayot

**Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahridagi Chinobod mahallasida Sabohat opa va Abdulla aka Barnoyevlar oilasi yashaydi. Oilaning katta o'g'li Ulug'bek jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib kamol topdi. U maktablararo o'tadigan sport musobaqalarida doim g'olib bo'lardi. U kichik yoshidan boshlab, butun mamlakat sharafini himoya qila oladigan mard va botir yigit bo'lishni orzu qilardi.**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

# YENGILMAS

U maktabini bitirib, shahardagi kasb-hunar bilim yurtida tahsil oldi. Talabalar o'rtasida o'tadigan musobaqalar boshlanishidan oldin do'stlari bilan O'zbekiston madhiyasini baralla kuylar edi. Musobaqalarda davlatimiz bayrog'ining baland ko'tarilishini sevardi. "O'zbekiston bayrog'i - olamdagi eng muqaddas va chiroyli bayroq!" derdi o'ziga o'zi ich-ichidan faxrlanib...

Ulug'bek bilim yurtini tugatgach, yurtimiz janubida joylashgan Surxondaryoga muddatli harbiy xizmatga chaqirildi. Harbiy xizmatdan so'ng ichgan ontiga sodiq qolib, xizmatni davom ettirdi.

Qahramonimiz safdoshlari bilan do'st-u qadrdon bo'lib ketdi. Ular ona Vatan chegaralarini qo'riqlayotganidan g'ururlanishar edi. Harbiy mashg'ulotlarda bir-birining otini aytib emas, chapdastligi, chaqqonligi, hushyorligiga qarab, "Yo'lbars", "Burgut", "Chaqqoq" deb atashar edi. Ulug'bekni esa hamma "Yengilmas", deb chaqirardi.

2000-yilning avgust oyi edi... Shu kunlarda mamlakatimiz mustaqillik bayramini o'tkazish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda, janubdagi chegaralarimizga manfur dushman - xalqaro terrorchilar to'dasi hujum qildi. Ularning yovuz maqsadi - bosqinchilik yo'li bilan halol va mard xalqimizning boshiga qora kunlarni solib, bog'-u bo'stonlarimizni payhon qilib, shahar va qishloqlarimizni vayron etib, maktab va bog'chalarimizni portlatib, kulini ko'kka sovurib, sarhadlarimizni egallab olmoq edi. Ammo dushman bilmasdiki, O'zbekiston chegaralarini qo'rqmas, jasur, yengilmas harbiylar, serjant Ulug'bek Barnoyevdek alplar qo'riqlab turardi.

Tunda ishg'olchilarga qarshi janglar boshlandi. Dushman tomonidan kelayotgan o'q yomg'irlarga qarshi bizning yigitlar ham olovdek tashlanishdi. Yigitlar qoyadan qoyaga qoplondek sakrab, dushman pistirmalarini yakson qila boshladi. Ularning keng yelkalarida ona O'zbekiston tinchligi va mustaqilligi,

chegara ortidagi ota-onasi, jon-jigarlari, yurtdoshlarining hayoti, yuraklarida Vatan mehri quyoshdek porlar edi. Yigitlar dushmanni boshini, uch boshli ilonning boshini uzgandek uzib tashladilar. Ammo urush - qonli to'qnashuv, omonsiz bo'lmas ekan...

Botir harbiy xizmatchilarimiz yuksak vatanparvarlik ko'rsatib, qishloqlarni ozod etdi. Ammo hali pistirmada jon talvasasida o'rtanayotgan dushman tarkibi bor edi. Uning qonli qo'li otgan o'qlardan biri yengilmas serjant Ulug'bek Barnoyevning ko'ksiga kelib tegdi. Ulug'bek o'q yesa-da, so'nggi bor dushman tomon o'q yomg'irlarini yog'dirdi. Bir necha joydan g'imirlayotgan yovuzlarning uni o'chdi. Ming afsuski, Ulug'bek ham yerga yiqila boshladi. Do'stlari uni suwab qolishdi. "Yengilmas", biz yoningdamiz, "Ulug', ko'zingni och, jo'rajon!" degan ovozlarni eshitdi u. Ammo serjant Ulug'bek Barnoyev ko'p qon yo'qotgan edi. Do'stlari uni baland qoya ostiga olib kelishdi. U "Meni O'zbekiston tomonga qaratib qo'yinglar, bayrog'imizni ko'rib turayin", dedi. Do'stlari Ulug'bekni suwab, unga yurt bayrog'ini ko'rsatishdi. Ulug'bek titroq lablari bilan "Biz yengdik!" dedi va mayin jilmaydi...

"Ha, biz yengdik, sen yengding, Ulug'bek, chunki sen "YENGILMASSAN?!" dedi safdoshlari bunga javoban, yelkalarini silkinib titragancha...

Har safar Kattaqo'rg'on shahriga borganimda, Ulug'bek Barnoyev nomidagi ko'chadan o'taman. Gullarga burkangan ko'cha boshida serjant Ulug'bek Barnoyevning ko'ksiga "Jasorat" medali qadalgan surati bor. Bu ko'chadan har tong bolalar Ulug'bek o'qigan 16-umumta'lim maktabiga borishadi. Maktabda Ulug'bek Barnoyevning byusti o'rnatilgan. Maktab darvozasida O'zbekiston bayrog'i hilpirab turibdi. Bayroq shamolda shitirlaganda, kimdir "Yengilmas, yengilmas!" deya shivirlagandek bo'ladi.

## Ulug'bek Barnoyev NOMLI KO'CHA BOR

Azim Samarqandda, Kattaqo'rg'on'da,  
Ulug'bek Barnoyev nomli ko'cha bor.  
Ko'chadan ta'zim-la o'tar odamlar,  
Mard o'g'lonni eslab, takror va takror.

Bunda yashar uning ota-onasi,  
Yurakda farzandin yodi barhayot  
Gullar ona shahri Kattaqo'rg'oni,  
"Chinobod" mahallasi chindan ham obod.

Mana uning maktabi aziz, qadrdon,  
Bu ko'chadan har kun Ulug'bek yurgan.  
Bunda u baxt topgan, duolar olgan.  
Bunda u eng go'zal bir qizni ko'rgan.

Mana shu shaharda kamol topdi u,  
Zabardast, ko'zlari cho'g'li Ulug'bek.  
Ko'rganlar "Otangga rahmat!", deyishgan,  
Abdulla akaning o'g'li Ulug'bek.

O'qishni tugatib, harbiyga ketdi,  
Uzun, Sariosiyo tog'lar tomonga.  
Harbiy mashqlarda hammaga o'rnak,  
Sog'inchlar, salomlar Kattaqo'rg'onga.

"Assalom, onajon, assalom, ota!  
Harbiy xizmat sinar yigitning orin.  
Vatanni sizlardek sevdim yurakdan,  
Sevdim tog'-u toshin, chang-u g'uborin".

Bir kun maktub oldi sevgan qizidan,  
O'sha kamgap qizdan, tortinchoq qizdan.  
"Yaxshi yuribsizmi, Ulug'bek aka?  
Tog'lar hidi kelar maktubingizdan".

To'y umidi bilan yashar Ulug'bek,  
Yonida o'zidek yo'lbarslar, zo'rlar.  
Bir kun chegarani qiyomat qo'pdi,  
Chegarani buzdi vahshiy, qonxo'rlar.

Qudratli bo'ronga aylandi birdan,  
Bahordek Ulug'bek, bog'dek Ulug'bek.  
Quroldosh do'stlari, botirlar bilan,  
Tog' tomonga ketdi tog'dek Ulug'bek.

Tog'ga keta turib, ortga bir boqdi,  
Ortda turar edi Kattaqo'rg'oni.  
Otasi, onasi, uyi, maktabi,  
Sevgilisi, singlisi - nomusi, shoni.

Yigitning Vatandan o'zga nesi bor?  
Vatanga atalgan yigitning joni.  
Dushmanni boshini yanchadi yigit,  
Yigitdir Vatanning qilich qalqoni.

Dushmanga bo'rondek tashlandi mardlar,  
Jang qurbonsiz bo'lmas, jonlarni oldi.  
Vatani tomonga kelgan baloni,  
Yigitlar tog' bo'lib qaytarib qoldi.

Qarsillagan ovoz berdi aks-sado.  
Tog' tomon tog' bo'lib ketdi Ulug'bek.  
Yurtga tinchlik berib, omonlik berib,  
Bahoriy bog' bo'lib ketdi Ulug'bek.

Tog'larga sochildi yigitning qoni,  
Tog'larga borganda yod eting uni.  
Eng go'zal bir qizga bermoqlik uchun,  
Lolalar terganda yod eting uni.

Dushmanni qaytardi jonini berib,  
Qutlug'lar ichida bo'ldi qutlug'bek.  
Vatan yuragingda tog'laring ko'pdir,  
Ularning bittasin nomi Ulug'bek.

Azim Samarqandda, Kattaqo'rg'on'da,  
Ulug'bek Barnoyev nomli ko'cha bor.  
Ko'chani bir uchi tog'larga tutash,  
Bu ko'chadan ketmas abadiy bahor.

**Zulfiya MO'MINOVA,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi, shoira**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

# VATANPARVAR



### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan  
farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar departamenti  
- "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining  
kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot  
agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami  
bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

### Navbatchi:

kapitan Shohrux Saidov  
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva  
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6119

Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 823 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani  
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop  
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq  
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,  
Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan  
tahririyati bilan bog'lanish  
uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

www.mudofaa.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi  
www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@umail.uz  
mudofaavazirligi  
mudofaavazirligi  
www.youtube.com/c/UzArmiya